

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI**

**«Geografiya o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi 4B-kurs talabasi  
Nurmaxanov Ersultan Obodovichning  
«To`rtkul tumaniga iqtisodiy geografik tarif»  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

Ajiniyoz nomidagi NDPI  
Geografiya kafedrası professori,  
geografiya fanlari doktori

UMAROV E.K.

**Kafedra mudiri:**

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

GAYPOVA R.T.

**NUKUS-2015 yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. TO'RTKUL TUMANI TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARINING TUMAN IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TASIRI.....</b>	<b>5</b>
1.1. Geografik joylashgan o`rni.....	5
1.2. Tuman yer yuzasining to`zilishi va foydali qozilmalar.....	6
1.3. Iqlimi va agroiqlim resurslari.....	8
1.4. Suvlari va suv resurslari.....	15
1.5. Tuprog`i va yer resurslari.....	16
1.6. Bioresurslari.....	18
<b>II-BOB. TO'RTKUL TUMANINING AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARINING TUMAN IJTIMOIIY - IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....</b>	<b>22</b>
2.1. To`rtkul tumani aholisining o`shish su`rati va tarkibi.....	22
2.2. Tuman aholisining yosh, jinsiy va milliy tarkibi.....	25
2.3. To`rtkul tumanining mehnat resurslari va uning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantirishdagi roli.....	28
<b>III-BOB. TO'RTKUL TUMANINING IJTIMOIIY - IQTISODIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....</b>	<b>31</b>
3.1. To`rtkul tumani ishlab chiqarish sohalariga umumiy ta`rif.....	31
3.2. To`rtkul tumani noishlab chiqarish sohalarining shikllanishi va uning tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati.....	38
3.3. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida transport-iqtisodiy aloqalarining roli.....	40
<b>XULOSA.....</b>	<b>42</b>
<b>ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>50</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Inson dunyoga kelar ekan, u eng avvalo o`z uyi, ko`chasi, to`g`ilgan makoni, keyin butun dunyoni anglay boshlaydi, mehr qo`yadi, uni Vatan deb ardoqlaydi. Vatan ostonadan boshlanadi deganlarining ma`nosi shu.

XXI asr eshiklarini dadil ochgan yurtimiz mustaqilligi bizga Vatan tushunchasi, tug`ilgan yurt, ona tilimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, o`zligimizni anglash baxtini byerdi, eng muhimi etti otani, avlodu-ajdodlarni, ularning kimligi, nasl-nasabi, yashagan davri, haetdagi o`rnini bilish, ajdodlar xotirasini e`zozlash, ular makon tutgan yerlarni bilish hissi va burchini uyg`otdi.

Ushbu malakaviy bitiruv ishi Qoraqalpog`iston Respublikasi To`rtkul tumanining tabiiy-iqtisodiy sharoitlaridan ishlab chiqarishda samarali foydalanish orqali tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o`ziga xos ahamiyatini ochib byerishga bag`ishlangan.

To`rtkul tumani Qoraqalpog`iston respublikasining eng ilg`or va yirik, respublikada o`ziga xos salohiyatga ega iqtisodiy tomondan har tomonlama rivojlangan tumanlaridan biri hisoblanadi.

To`rtkul tumanining asosiy ixtisosligi bu dehqonchilik, paxtachilik ixtisosligidan iborat bo`lib, shu majmuani to`liqtiruvchi tarmoqlarga pillachilik, sut-go`sht chorvachiligi, poliz va sabzavot, bog`dorchilik va chorva uchun em-xashak bazasini yetishtirishdan iborat. Bundan tashqari g`alla yetishtirish tarmoqlari, shuningdek sholigarchilik, don uchun makka, keyingi mustaqillik yillaridan boshlab bug`doy yyetishtirish tarmoqlari ham rivojlanmoqda. To`rtkul tumani Qoraqalpog`iston Respublikasida, dastavval paxta tolasi, sut mahsulotlari, poliz va sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda, meva va uzum yetishtirish bilan, shuningdek, sholi va bir qancha boshqa mahsulotlarni yetishtirish bilan o`z ulushini qo`shadi.

**Tadqiqot ob`ekti va predmeti.** Tadqiqot ob`ekti sifatida To`rtkul tumanining asosiy xalq xo`jaligi sohalari tanlangan. Predmeti esa Tumanning o`ziga xos hududiy jihatlari va ekologik omilni hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy

sohalarining rivojlanishi va geografik joylashishini o`rganish va tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot maqsadi.** Ishning maqsadi yuqorida ko`rsatilgan muammolarni, ayniqsa, tuman iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o`ziga xos mintaqaviy imkoniyatlarini ko`rib chiqish. Shu kabi hayotga tadbiq etilishi lozim bo`lgan rejalarning amalga oshishi respublikada yuz byergan keskin ekologik inqiroz sharoitida ishlab chiqarish sohalarining hududiy tarkibini takomillashtirish orqali uning rivojlanishini ta`minlash.

**Tadqiqot ishining nazariy asoslari.** Ishning nazariy asoslari mustaqillik davrida respublikada sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi o`zgarishlar bilan bog`liq O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olg`a surilgan takliflarga hamda ushbu masalalarga tegishli respublika rahbariyati tomonidan qabul qilingan qonun va ko`rsatmalar bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya va ularga tutash fanlarda yaratilgan ilmiy g`oya va qonuniyatlar ham ushbu malakaviy ishning nazariy asosidan o`rin olgan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Olib borilgan tadqiqotlar natijasida erishilgan xulosa, taklif va tavsiyalar Qoraqalpog`iston Respublikasi To`rtkul tumani ijtimoiy va iqtisodiy sohalarini rivojlantirish va joylashtirishga oid manbalar sifatida o`quv jarayonida va amaliyotda foydalanish ko`zda tutilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 51 bet, 11 jadval va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va manbalarni o`z ichiga oladi.

# **I. BOB. TO`RTKUL TUMANI TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARINING TUMAN IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA`SIRI**

## **1.1. Geografik joylashgan o`rni**

To`rtkul tumani Qoraqalpog`iston Respublikasining janubiy sharqida Amudaryoning o`ng sohilida joylashgan bo`lib, maydoni 7,5 ming km<sup>2</sup> hududni tashkil etadi. Tuman Qoraqalpoiston Respublikasining Ellikqa`la, Byeruniy tumanlari bilan, g`arbda esa Amudaryo orqali O`zbekistonning Xorazm viloyati bilan va janubiy-sharqda esa daryo orqali Buxara viloyati bilan, sharkdan esa Navoyi viloyati bilan chegaradosh. To`rtkul tumani Qoraqalpog`istonning boshqa tumanlariga nisbatan eng janubda joylashgan va transport-iqtisodiy jihatdan qo`layli geografik o`rinda joylashgan hisoblanadi.

To`rtkul tumani Amudaryoning chop sohilida joylashgan Qo`yi Amudaryo iqtisodiy rayonining boshqa ma`muriy hududlariga nisbatan qo`lay geografik o`rinni egallab, Nukus-To`rtkul-Uchquduq-Navoyi-Toshkent temir yo`li bo`yida joylashgan. Bu To`rtkul tumanining O`zbekistonning boshqa ishlab chiqarish rayonlari bilan to`g`ridan-to`g`ri iqtisodiy jihatdan aloqa qilish uchun imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

To`rtkul respublika poytaxti Nukusdan 173 km, Urganch temir yo`l stantsiyasidan 30 km uzoqlikda joylashgan. To`rtkul tumani Qoraqalpog`istonning Amudaryoning o`ng va Chop sohilida joylashgan shimoliy tumanlari bilan avtomagistral` trakti orqali Nukusgacha, bundan keyin Nukus-Taxtakopir avtomagistrali orqali o`ng sohilda joylashgan tumanlar bilan, shuningdek Nukus orqali Taxiyatoshga Taxiyatosh-Xo`jayli avtomagistrali orqali va Xo`jayli-Qo`ng`irot-Muynoq, Xo`jayli-Qorabayli-Shumanoy, Xo`jayli-Kunya Urganch avtomagistrallari orqali Amudaryoning chop sohilida joylashgan ma`muriy tumanlari bilan aloqa qiladi. Xo`jayli-Qo`ng`irot-Beynov temir yo`l liniyasi orqali Rossiyaning evropa qismida joylashgan iqtisodiy rayonlari bilan, Xo`jayli-Kunya Urganch avtomagistrali orqali esa Turkmaniston Respublikasining Toshxavuz viloyatining shimoliy tumanlari bilan aloqa qiladi, To`rtkul tumani Toshso`g`a

temir yo`l ko`priki orqali Urganch avtomagistraliga, Urganchdan Urganch-Toshxovuz-Kunya Urganch avtomagistrallariga chiqadi va Xorazm viloyati, shuningdek Toshxovuz viloyatining janubiy tumanlari bilan iqtisodiy jihatdan aloqa qiladi.

Bu yo`llar orqali passajirlar va yuk toshish operatsiyalari amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda Nukus temir yo`l stantsiyasidan janubiy yo`nalishda Byeruniy-Uchkuduq-Navoyi-Toshkent temir yo`l magistrali ishga tushishiga bog`liq To`rtkul tumanining iqtisodiy aloqalari yana ham mustahkamlandi. Hozirgi paytda To`rtkul tumani uchun asosiy xo`jalik ixtiyoj yuklari to`g`ridan-to`g`ri To`rtkul temir yo`l stantsiyasida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bazi bir yuklar Beynov-Qo`ng`irot temir yo`li orqali Nukus stantsiyasidan To`rtkulga olib kelinadi. To`rtkuldan eksportqa chiqariladigan sanoat va qishloq xo`jalik mahsulotlari ham To`rtkul-Nukus temir yo`l stantsiyalari orqali mamlga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilgan temir yo`l liniyasining To`rtkul shahridan o`tishi bilan tashqi iqtisodiy aloqalarning yanada yaxshilanishi uchun zamin yaratdi va chetga chiqariladigan yuklar, shuningdek chetdan To`rtkulga keladigan import mahsulotlarini olib kelishda katta imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

To`rtkul tumani hozirgi vaqtda Qoraqalpog`iston Respublikasining poytaxti hisoblanadigan Nukus shahri orqali Markaziy Osiyo, shuningdek chet ellar bmlan ham havo transporti orqali transport-iqtisodiy aloqalarni yo`lga qo`ygan.

Xulosa qilib aytganda, To`rtkul tumaning iqtisodiy-geografik joylashgan o`rni, uning yaqin kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

## **1.2. Tuman yer yuzasining to`zilishi va foydali qozilmalari**

To`rtkul tumani yer yuzasining to`zilishi va shakllanishi bir tekis emas. Bu yerda keng tekisliklar bilan bir qatorda katta «qozon chuqurlar» ham uchraydi. Qum tepaliklar Qoratovdan bo`linib qolgan kichik qoldiqlari hisoblangan tog` tepaliklari joylashgan. Ular 160-180 metr balandlikga ega. Tumanning ko`pchilik

bo`limini qumli rel`ef shakllari egallaydi. Qumli-toshli barxanlar tuman hududining bir bo`lagini egallab yotadi.

Tuman hududida balandligi 160-180 metr balndlikda ko`ratilib yotgan Yomon Ko`kcha va Yaxshi Ko`kcha tog, Ayoq qala balandliklari joylashgan. Ularning ichidagi eng kattalarining balndligi 180 metrgacha etadi. Kichkina tog`larning barchasi g`arbdan sharqga tomon joylashgan. Tuman hududidagi qum tepaliklar va barxanlarning balandligi 7 metrdan 11 metrgacha etadi. Sug`oriladigan zonada rel`ef shakllari antropogen kuchlari ta`siri ostida katta o`zgarishlarga uchragan. Past tekisliklar ko`pincha Amudaryoning qirg`oqlari bo`ylab joylashib, ularning eni 40 km, uzunligi 115 km ga cho`zilib, Amudaryoga parallel shaklida, Yomon Ko`kcha tog`ining yaqiniga uzunasiga joylashgan. Bu pasttekisliklar sharqda Qizilqum qumlari bilan o`rabilib yotadi. Amudaryoni bo`ylab yotgan past tekisliklar To`rtkul tumanining asosiy dehqonchilik etadigan hududlari hisoblanadi. Umuman olganda To`rtkul tumanining rel`efi ayniqsa Amudaryo bo`yidagi dehqonchilik sohalarida, yo`l transporti tarmoqlarini qurish, uy-joy qurish, sanoat sohasining ishlab chiqarish bazalarini yaratishga qulay hisoblanadi.

Tuman hududidagi qum barxanlari bilan qoplangan maydonlar chorvachilik uchun yaylov fondi bo`lib topiladi. Dehqonchilik qilishda o`zlashtirilgan hududlarda o`t-o`lan zahiralariga boy. Bu chorvachilik uchun o`tloq va yaylov sifatida foydalaniladi. Bulardan qimmatbaholi va turli hil kasalliklarga shifobaxsh yantoqo`simliklari keng hududni egallab yatibdi. Tuyamo`yin suv omboridan Aqshadaryo massivigacha bo`lgan hududda kelajakda sug`orish yo`li bilan xalq xo`jaligida foydalanish ko`zda tutilgan.

Tuman hududida joylashgan barxanli yaylovlar ham yurtimizning «Oltin yer fondi» hisoblanadi va kelajakda qoramol chorvachiligida foydalaniladi.

To`rtkul tumani hududida qazilma boyliklariga, asosan qurilish materiallar iga boy zahiralariga ega. Shulardan eng ko`p foydalanadigani so`zloy hisoblanib, bu uy-joy qurilishi uchun g`isht ishlab chiqarishda keng turda foydalanib kelinmoqda. Tumanning shimoliy-sharqida Ayoqqa, Ko`kcha va Yomon Ko`kcha tog`larida

qurilish materiallari uchun yaroqli ahoktosh, shag`altosh va granit toshlari bor. Tuman beton va temir-beton mahsulotlarini olishda uy-joy, suv xo`jalig`i uchun kerakli bo`lgan detallarni ishlashda Qizilqum qazilma boyliklari keng qo`llanilmoqda. Qum zahirasi sheklanmagan. Shuningdek, tumanning tuzga bo`lgan ixtiyojini ta`minlash uchun «Saq ko`l» tuz konidan tuz qozib olinadi. Tuman hududida qazib olingan ohaktoshlar ko`pincha avtomobil yo`l qurilishida ishlatilmoqda. Shuning bilan bir qatorda To`rtkul tumaniga Qoratovdan har hil qurilish toshlari foydalanish uchun olib kelinadi. Bu materiallar beton va temir-beton mahsulotlarini olishda, uy-joy qurilishida, shuningdek qurilish materiallari ini biriktirish uchun element sifatida qo`llaniladi.

To`rtkul tumanining eng yirik xalq xo`jalik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega boyligi sifatida yer osti suvlarini ko`rsatib o`tsak bo`ladi. Tuman yer osti suvlarining zahirasi boy. Ular asosan tumanning Amudaryoga yaqin qismida joylashgan. Yer ostidan chiqadigan suvlari Qizilqum hududidagi yaylovlaridagi chorva mollarini suv bilan ta`minlaydi. Shuningdek ayrim quduqlarning atrofida chorvalar uchun kichik suv bilan ta`minlash oazislari yaratilib, u yerlarda sabzavot va em-xashak ekinlari ekiladi. Daryo vodiysida joylashgan zonada aholining ko`pchiligi yer osti suvlaridan ichimlik suvi holatida foydalaniladi.

### **1.3. Iqlimi va agroiqlim resurslari**

To`rtkul tumani O`rta Osiyoning markaziy qismida Atlantik okeanidan uzoqda, kontinent ichkarisida dunyodagi eng yirik cho`llar Qizilqum va Qaraqumning markazida joylashgan va shunga muvofiq uning iqlimi keskin kontinental hisoblanadi. G`arbdan ta`sir ko`rsatuvchi Atlantik okeanining havo massalari o`zi bilan birga namlikni, ya`ni yog`on-sochin olib kelsa, Shimoliy muz okeani esa Sibirdan esadigan havo massalarini, ya`ni sovuqni olib keladi. Natijada yilning qish oylarida havoning harorati keskin pasayib ketadi. Qish oylarida Atlantik okeanidan keladigan issiq va nam havo massalari, Shimoliy muz okeanidan va Sibirdan esuvchi sovuq antitsiklon ta`sirida juda ham sovib, qorlar

aynalishi kuzatiladi. Shuningdek, havo haddan tashqari sovutib, kuchli shamollar esa boshlaydi. Bu o'z navbatida yaylovlardagi chorva mollariga nojuya ta'sirlar ko'rsatadi. Bunday holatlarda chorvachilik xo'jaliklarda mo'l em-xashak zahiralari ko'proq g'amlab qo'yishga ixtiyoj tug'iladi. Yuqoridagilardan tashqari kech bahorda va erta kuzda Arktika va Sibirdan keluvchi sovuq havo massalari qishloq xo'jalik ekinlarini sovuq urib ketishiga va dehqonchilik mahsulotlarining kamayib ketishiga, bazi yillarda esa qirov urib ketgan hollarda ekinlarni qayta ekishga tug'ri keladi va dehqonchilik sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shunday holatlarning biri 1991-yili kuzatilib, issiq havo massalari birdaniga sovutib ketishi natijasida Qo'yi Amudaryo iqtisodiy rayonining ko'pchilik xo'jaliklarida, shuningdek To'rtkul tumani hududida ham do'l va yomg'ir yog'ib, bu o'z navbatida respublika xalq xo'jaligiga katta miqdorda zarar keltirdi. Shu yilning 29-30 may kunlari tuman hududida yog'qan do'l endi o'sib chiqayotgan paxta ekinlariga zarar etkazilganligi arxiv ma'lumotlaridan ham bilsa bo'ladi. Shunday qilib, bir oy davomida yog'qan do'l va yog'inlar natijasida butun Qoraqalpog'iston Respublikasi, jumladan To'rtkul tumani xo'jaliklari ko'pgina zarar ko'rdi. Dehqonchilik maydonlarida namlikning ortishi va yerlarning o'z vaqtida surimga kelmasligi ko'pchilik xo'jaliklarda paxtachilikning kech ekilishi natijasida dehqonchilikdan olinadigan hosildorlik miqdori, sifati pasayib ketdi, shuning natijasida xo'jaliklarning mamlakatga mahsulot sotish rejasi bajarilmay qoldi. Bu o'z navbatida tuman xo'jaliklari hukumat oldida katta miqdorda qarzdor bo'lib qoldi. Ayrim yillarda yoz oylarida janubdan keluvchi juda issiq va subtropik havo massalari (Iron va Ao'g'onistondan keluvchi havo massalari) tumanda qurg'oqchilik olib keladi. Bunday quruq havo massalari tuproqdagi namlikning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'uladi. Bu hol paxtaning o'sib rivojlanishiga salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Tuman iqlimiga tavsif byerish uchun qo'yidagi meteorologik stantsiyalarning (Qung'irot, Chimboy, Tashxovuz, To'rtkul) ma'lumotlaridan foydalandik. Iqlim sharoitining geografik hususiyatiga ta'rif byerish uchun esa prof. J. Matmuratovning «Agroklimaticheskie usloviya sevyero-zapadnogo

Uzbekistana» (Nukus, Karakalpakstan, 1989) nomli monografiyasidan foydalanildi. To`rtkul tumanining iqlimiga oid ko`rsatkichlar qo`yidagi jadvalda berilgan (jadv. 1).

**Jadval №1**

**To`rtkul tumani iqlim ko`rsatkichlari**

Meteostantsiya nomi	Havoning o`rtacha harorati, gradus hisobada			Maksimum harorati	Minimum harorati
	Yanvar	Iyul`	Yillik		
<b>Qung`irot</b>	<b>-7,1</b>	<b>25,8</b>	<b>10,0</b>	<b>41</b>	<b>-29</b>
<b>Chimboy</b>	<b>-7,6</b>	<b>26,0</b>	<b>10.0</b>	<b>42</b>	<b>-31</b>
<b>Nukus</b>	<b>-6,9</b>	<b>27,1</b>	<b>11.0</b>	<b>44</b>	<b>-32</b>
<b>To`rtkul</b>	<b>-4,9</b>	<b>28,2</b>	<b>12.4</b>	<b>44</b>	<b>-32</b>
<b>Urganch</b>	<b>-5,1</b>	<b>27,3</b>	<b>11.8</b>	<b>43</b>	<b>-32</b>
<b>Toshxovuz</b>	<b>-5,5</b>	<b>27,0</b>	<b>11.6</b>	<b>43</b>	<b>-32</b>
<b>Tomdi</b>	<b>-4,1</b>	<b>30,0</b>	<b>13.4</b>	<b>44</b>	<b>-31</b>

Jadvalda berilgan ma`lumotlarga bog`liq To`rtkul tumani iqlimi yer sharining cho`l mintaqasining iqlimiga xos yozi juda issiq, qish esa qurg`oq va sovuq keladi. Yog`in-sochinning miqdori juda kam, qor qatlami ham juqa bo`ladi. O`rtacha yillik havo harorati Qung`irot, Chimboy meteostantsiyalarida 10° ga, Nukusda 11° ga, Tashxovuz va Urganchda 11,6°-11,8° ga, To`rtkulda esa 12,4° ga teng. Qizilqum ichida joylashgan Tomdi tumanida 13,4° gacha boradi. Eng issiq oy hisoblanadigan iyulning o`rtacha havo harorati To`rtkulda boshqa meteostantsiyalar ko`rsatkichlariga nisbatan bir muncha ko`p 28,2°. Nukus, Urganch va Toshxovuz meteostantsiyalari bo`yicha iyul oyining havo harorati 27°, 27,3° ga teng.

Iyul oyining havo harorati biroz past bo`lib 25,8-26,6° ga teng. Jadvalda keltirilgan meteostantsiyalar bo`yicha eng sovuq yanvarning o`rtacha havo harorati bir xil emas, eng past harorat Qoraqalpog`istonning shimolida joylvshgan Chimboyda -7,6°, Qung`irotida -7,1° va Nukusda -6,9° atrofida. Yanvar oyining havo harorati janubda joylashgan To`rtkul stantsiyasida biroz yuqoriroq bo`lib, Urganch va Toshxovuz meteostantsiyalarining ko`rsatkichlariga nisbatan -0,2°, -0,6° ga yuqori. Iyul oyidagi eng maksimal havo harorati shimolda joylashgan

Qung`irot, Chimboy meteostantsiyalaridan boshqa stantsiyalarning barchasida aytarlidek bir xil bo`lib 43°, 44° ga teng. Shunday qilib yanvarning eng minimal havo harorati Nukus, To`rtkul, Urganch, Toshxovuz meteostantsiyalarida -32° gacha kuzatilsa, Orolga yaqinroq joylvshgan Qung`irot, Chimboy meteostantsiyalarida -29°, -31° gacha boradi. Yillik mutloq havo harorati amplitudasi 76° gacha etadi. Yuqoridagi jadvalning ko`rsatkichlari tuman iqlimining yozda issiq, qishda esa juda sovuq ekanligini ko`rsatadi.

To`rtkul tumanining iqlim resurslari bo`yicha ma`lumotlar qo`yidagi jadvalda berilgan.

## Jadval №2

### To`rtkul tumani agroiqlim resurslari

Meteo- stantsiya nomi	O`rtacha havoning sovuq tushish vaqti		Sovuqsiz kunlar soni	+10° dan yuqori Effektiv haroratlar yig`indisi	O`rtacha sutkalik haroratning Bahorda +10° dan ortib ketish vaqti
	Bahorgi so`nggi sovuq tushishi	Kuzgi birinchi sovuq tushishi			
<b>Qung`irot</b>	<b>7. IV</b>	<b>20. X</b>	<b>125</b>	<b>1902</b>	<b>10. V</b>
<b>Chimboy</b>	<b>6. IV</b>	<b>17. X</b>	<b>193</b>	<b>1958</b>	<b>8. IV</b>
<b>Nukus</b>	<b>4. IV</b>	<b>18. X</b>	<b>196</b>	<b>2147</b>	<b>6. IV</b>
<b>To`rtkul</b>	<b>29. III</b>	<b>25. X</b>	<b>209</b>	<b>2385</b>	<b>18. IV</b>
<b>Urganch</b>	<b>3. IV</b>	<b>22. X</b>	<b>201</b>	<b>2215</b>	<b>2. IV</b>
<b>Toshxovuz</b>	<b>3. IV</b>	<b>23. X</b>	<b>202</b>	<b>2178</b>	<b>6. IV</b>
<b>Tomdi</b>	<b>4. IV</b>	<b>27. X</b>	<b>205</b>	<b>2610</b>	<b>29. III</b>

Yuqorida berilgan jadvalning ko`rsatkichlariga nisbatan bahordagi eng so`nggi va kuzdagi eng birinchi qirov tushishi vaqti va ularning orasidagi sovuqsiz kunlarning miqdori barcha meteostantsiyalarda bir xil emas. Masalan, Orol dengizining ta`sirida Qung`irot meteostantsiyasida bahorgi so`nggi qirov tushish vaqti 7 aprelda, Nukus, Chimboy meteostantsiyalarida 4-6 aprelga to`g`ri kelsa. To`rtkulda esa 29 martda, Urganch va Toshxovuzda bo`lsa 3 aprelga to`g`ri keladi. To`rtkul meteostantsiyasida eng so`nggi bahorgi qirov tushish Nukusga nisbatan 6 kun, Chimboyga nisbatan 8 kun, Qung`irotga nisbatan 9 kun oldin seziladi, yaki bo`lmasa Urganch va Toshxovuz meteostantsiyalariga nisbatan 5 kun oldin bo`ladi. Bu holat To`rtkul tumanida 29 martdan keyin paxta ekish ishlarini

boshqa tumanlarga nisbatan 5-10 kun avval boshlab yuborishga imkoniyat yaratadi. Shimoliy tumanlar uchun paxta ekishning aniq vaqti deb 25 aprel hisoblansa, To'rtkulda bu vaqt 14-15 aprelga to'g'ri keladi. Shu muddatda ekilgan o'rta pishar navlarining to'liq pishib etilishiga va hosildorlikning ko'p bo'lishiga sharoit yaratiladi.

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan kuzgi eng birinchi qirov tushish shimoliy tumanlarda 17-20 oktyabrga to'g'ri kelsa, Urganch va Toshxovuzda 22-23 oktbrga, To'rtkulda esa shimoliy tumanlarga nisbatan 8 kun, Urganch va Toshxovuzga nisbatan 2-4 kun kech keladi. Qung'irotda kuzgi birinchi qirov tushish muddati 20 oktyabrga to'g'ri kelib, bu hududda Orol dengiziga yaqin joylashganlikdan, bu hududdagi tumanlarga nisbatan bahordagi so'nggi va kuzdagi birinchi sovuq tushish orasidagi kunlarning soni To'rtkul tumanida yuqori ko'rsatkichga ega va 209 kunga barobar bo'lsa, bu ko'rsatkich Chimboy, Qung'irotda, Nukus meteostantsiyalarida 193-196 kunga, Urganch va Toshxovuz meteostantsiyalarida esa 201-202 kunga teng.

To'rtkulda sovuqsiz kunlarning soni shimoliy tumanlarga nisbatan 13-16 kunga, janubiy tumanlarga nisbatan esa 7-8 kunga ko'p. Demak, paxta ekish uchun muddat To'rtkul tumanida boshqa tumanlarga nisbatan 8-16 kun avval boshlanadi. Sutkalik havo haroratining bahorda  $+10^{\circ}$  dan yuqori bo'lishi To'rtkulda 1 aprelga, shimoliy hududlarda 6-10 aprelga to'g'ri kelsa, Urganch va Toshxovuzda 2-6 aprelga to'g'ri keladi. Shu kunlardan boshlab yer yuzasining harorati  $+10^{\circ}$  Jan yuqori ko'tarila boshlaydi. Bu barcha xo'jaliklarda dehqonchilik ekinlarini ekishni boshlab yuborishga qo'lay sharoit to'g'diradi. Bahorgi eng so'nggi va kuzgi eng birinchi qirov tushish kunlarining orasidagi effektiv haroratlarning yig'indisi To'rtkul tumanida ko'p bo'lib,  $2385^{\circ}$  ga teng. Bu ko'rsatkich shimoliy tumanlarga nisbatan  $400^{\circ}$ - $420^{\circ}$  ga, janubiy tumanlarda joylashgan Urganch va Toshxovuzga nisbatan  $200^{\circ}$  ga ko'p degan so'z. To'rtkul tumanining agroiklim resurslari erta pishar paxta navlarini ekish uchun, shuningdek pillachilik, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun qo'layli sharoitni vujudga keltiradi.

To`rtkul tumanida yog`in-sochin miqdori kam bo`lib, ular hudud bo`ylab birtekis taqsimlanmagan.

To`rtkul tumani bo`yicha yog`in-sochin miqdorining fasllar davomida tarqalishini qo`yidagi 3-jadval ma`lumotlaridan ko`rish mumkin (jadv. 3).

### Jadval №3

#### To`rtkul tumaniining o`rtacha yillik va fasllar bo`yicha yog`inlar miqdori

Meteorostantsiya nomi	O`rtacha yog`inlar miqdori, % hisobida				
	qishda XII-II	Bahorda III-V	Yozda VI-VII	Kuzda IX-XI	Yil davomida (mm his.)
<b>Qung`irot</b>	<b>29</b>	<b>42</b>	<b>12</b>	<b>17</b>	<b>108</b>
<b>Chimboy</b>	<b>34</b>	<b>42</b>	<b>8</b>	<b>16</b>	<b>87</b>
<b>Nukus</b>	<b>27</b>	<b>45</b>	<b>15</b>	<b>19</b>	<b>82</b>
<b>To`rtkul</b>	<b>36</b>	<b>44</b>	<b>8</b>	<b>12</b>	<b>97</b>
<b>Urganch</b>	<b>39</b>	<b>43</b>	<b>6</b>	<b>12</b>	<b>82</b>
<b>Toshxovuz</b>	<b>30</b>	<b>45</b>	<b>10</b>	<b>15</b>	<b>86</b>
<b>Tomdi</b>	<b>39</b>	<b>48</b>	<b>2</b>	<b>11</b>	<b>108</b>

Yuqorida keltirilgan 3-jadval ma`lumotlariga asosan hududlar bo`yicha eng ko`p yog`inlar shimolda Qo`ng`irot tumanida, janubda Tomdi huduida bo`lib, yiliga 108 mm gacha yog`inlar yog`adi. To`rtkul tumanida yog`inlar miqdori boshqa tumanlarga nisbatan 5-10 mm ga ko`p bo`lib, o`rtacha yiliga 97 mm atrofida yog`inlar tushadi. Bu yog`in miqdori dehqonchilik uchun ko`pchilik ekinlarni sug`orib ekishga bog`liq hesh qanday ahamiyatga ega bo`lmasa ham, yaylovlardagi chorva mollari uchun katta ahamiyatga ega. Sababi yaylovdagi o`simliklarining o`sib rivojlanishida, ularning hosildorligiga bevosita ta`sirini ko`rsatadi. Tuman hududida sug`oriladigan yaylov maydonlari kam bo`lganligi uchun qish va bahor fasllarida yog`adigan yog`inlar yovvoyi o`simliklarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shu nazardan olib qaraganimizda To`rtkul tumanida yog`adigan yog`inlar miqdorining 80%i qish va bahor oylariga to`g`ri keladi. Yog`inlar ayniqsa yoz oylarida juda ham kam bo`lib, bor-yo`g`i 8 mm yog`in yog`adi. Yoz oylaridagi yog`in miqdorining kam bo`lishi, bu oylarda Qizilqum cho`llari haddan tashqari qizib, atmosferaning yuqori qabatlari issiq

havoning ko'tarilishi natijasida havo massalari tez qizib, atmosferaga oqimlari deformatsiyaga uchraydi va bug'larning qattiq qizishi tufayli, o'zining teskari ta'sirini ko'rsatadi. Yog'inlar kuzgi faslda ham usha sabablarga bog'liq kam bo'ladi.

Jadvaldagi ma'lumotlarga asosan bahor oylarida yog'inlar miqdori ko'p bo'lib, hamma meteostantsiyalarda 42-45% ga yaqin yillik yog'inlar tushadi. Keyingi paytlarda Orol muammosiga bog'liq Qoraqalpog'iston, jumladan To'rtkul tumani iqlimi biroz noqulay tarafga o'zgarib qoldi. Orol suvining qurishi va Orol dengizining 60% quruqlikga aylangan hududidan Qo'yi Amudaryoda joylashgan tumanlarning iqlim sharoitiga keskin ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda Quyi Amudaryo, shu jumladan To'rtkul tumanining iqlimiga xarakterli tomonlari quyidagilardan iborat.

1) To'rtkul tumani iqlimi yozi issiq va qurg'oq bo'lib, qishi esa sovuq bo'ladi, yillik amplitudaning yuqori bo'lishi tuman iqlimining keskin kontinentalligini ko'rsatadi.

2) Tuman hududida juda kam yog'in-sochin tushgani uchun dehqonchilik sohalari faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

3) Tuman iqlimi Qoraqalpog'istonning boshqa shimolda joylashgan tumanlariga nisbatan biroz iliq, Xorazm viloyati tumanlariga qaraganda biroz salqin bo'lishi, sovuqsiz kunlar miqdorining kamligi va dehqonchilik uchun zarur bo'lgan effektiv haroratlar yig'indisi miqdorining ozligi bilan xarakterlidir.

4) Qishloq xo'jaligi uchun eng qulaysiz iqlim sharoitlariga qo'yidagilar kiradi. Birinchidan, dehqonchilikka, shuning ichida makkaga, sholiga, paxtaga va boshqa madaniy o'simliklarga zararli bo'lgan bahorda va erta kuzda takrorlanib turadigan sovuq urishlar hisoblanadi.

Ikkinchidan qishloq xo'jalik usimliklariga katta zarar keltiradigan va aytarliqcha har yili kech bahorda va erta kuzda takrorlanib turadigan yog'in-sochinning bo'lishi, qish oylarida mol chorvachiligiga katta zarar keltiradigan sovuq shamollarning bo'lishi va temperaturaning absolyut minimal darajaga tushishi hisoblanadi.

Tuman iqlim sharoiti issiqlikni sevuvchi madaniy o`simliklarni ekishga, poliz va sabzavot, meva va pillachilikni, shuningdek, bedachilik tarmoqlarini rivojlantirishda qulayli sharoit tug`diradi. Madaniy o`simliklarning yangi navlarini foydalanishga alohida e`tibor byeriladi.

#### **1.4. Suvlari va suv resurslari**

Qoraqalpog`istonning janubiy tumanlarini suv bilan ta`minlaydigan Paxta-arna suvg`orish tizimi hisoblanib, u Amudaryoning o`ng sohilida joylashgan To`rtkul, Byeruniy, Ellikqa`la tumanlarining hududidan 84,0-100,0 ming gektar ekin maydonlarini suv bilan ta`minlaydi.

Kelajakda Paxta-arna kanali ta`sir etadigan hududda suvg`orilib ekiladigan yerlarning maydonini 145 ming gektarga, janubiy tumanlar bo`yicha umumiy ekin maydonlarini 182 ming gektarga ko`paytirishga imkoniyatlar bo`ladi.

Haqiqatdan ham, Qoraqalpogistonning janubiy tumanlari, jumladan Ellikqa`la, Yamboshqa`la, Qiriqqizobod massivlari pyerspektivada suvg`ormali dehqonchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shunga mos, janubiy tumanlarning suvg`orish tizimi bo`yicha Amudaryodan oladigan suvning chiqimini ko`paytirish zarur bo`ladi. Hozir paytda bu zonada Amudaryodan oladigan suvning chiqimi sekundiga 70 m<sup>3</sup> dan 100 m<sup>3</sup> gacha ko`paytirilsa ham Paxta-arna suvg`orish tizimi umumiy talablarga to`liq javob byermaydi.

Paxta-arna kanali 1926-1928 yillarda eski Sho`raxon suvg`orish tizimin qayta ta`mirlash va kichigirim Bozyab, Kunyabogyab, Amirobod, Kaltaminar, Saribiy kanallarini birlashtirish yo`li bilan ishga tushirilgan edi. Kelajakda janubiy tumanlarda yer resurslarini o`zlashtirishga bog`liq Paxta-arna suvg`orish tizimining suv byerish quvvatini yana ham orttirish maqsadga muvofiq keladi.

Paxta-arna kanalining uzunligi 27,5 km ni, eni esa 24 metr ga teng. Amirobod kanalining uzunligi 22 km, eni 6 metrni tashkil etadi. Bundan boshqa kaltaminar kanali bo`lib, uning uzunligi 24 km ni, eni esa 5 metr ga teng bo`lib To`rtkul tumanining ekin maydonlarini suv bilan ta`minlaydi. Shuningdek, Qiriqqizobod kanalining uzunligi 38 km, eni 6 metrni tashkil etib, u asosan

Qiriqqizobod massivida joylashgan ekin yerlarni suv bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqorida aytilgan kanallarning barchasi To'rtkul tumanining 30 ming gektardan ortiq ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi.

Tuman hududida ortiqcha yer osti sezot suvlarining sathini bir miyorda saqlash uchun birqancha kollektor-drenaj tizimlari qurilgan va bu kollektorlar yer osti sezot suvlarini To'rtkul tumanidagi eng katta Saqko'l va Qamishli ko'llariga quyish uchun foydalaniladi.

### **1.5. Tuprog'i va yer resurslari**

Tuman tuprog'i paydo bo'lishida Amudaryo suvining va iqlim sharoitining roli katta. Amudaryo bir necha asrlar mobaynida o'zi bilan tuman hududiga allyuvial yotqiziqlarni olib keladi. Cho'l iqlimi birinchi navbatda tuproq hosil qilish jarayoniga ta'sir qilib, u tuproqning tarkibiy jihatdan o'zgarishga uchrashiga ta'sir ko'rsatgan. Amudaryo suvi olib kelgan allyuvial tuproq o'zining mexanik tarkibi bilan farq qilib, ular loyqa, loy-qumli va qumli bo'lib keladi. To'rtkul tumani hududida tabiat komponentlari va iqlim sharoitlari qo'yidagi tuproq tiplarining hosil bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatganligi so'zsiz.

1. Allyuvial tarkibga ega, suvg'orib ekiladigan madaniy tuproqlar;
- 2.. Allyuvial o'tloqli tuproqlar;
3. Sho'r allyuvial tuproqlar;
4. Toqirli tuproqlar;
- 5.. Qumli tuproqlar.

Bundan tashqari tumanning shimoliy, shimoliy-g'arbiy va shimoliy-sharqiy hududlarida qum va tog'li toshli tuproqlarning bir nechta tiplari ham uchraydi.

1) Suv g'orilib ekiladigan allyuvial madaniy tuproqlarga bir necha asrlar mobaynida yerga ishlov byerish, haydash, suvg'orish, madaniy ekinlarni ekish natijasida tuproqning organik jihatdan o'zgarishga uchrashi natijasida allyuvial tuproqli yerlar suvg'orib ekiladigan madaniy tuproqlarga aylantirilgan. Bu tuproqlar ko'pincha tumanning g'arbida va janubida joylashgan. Ayrim yerlarda madaniy tuproqning qalinligi 1,5 metrdan 1,85 metrgacha. Bu tuproqlar mexanik,

fizik va kimyoviy tarkibi bo'yicha maqsuldor, chirindiga boy bo'lgan tuproqlar hisoblanadi. Suv g'orilib ekiladigan madaniy tuproqlarga ko'pincha paxta, poliz, sabzavot, g'alla va em-xashak ekinlari ekiladi. Tumanning asosiy uzumchilik maydonlari ham shu yerlarda joylashgan.

2) Allyuvial o'tloqli tuproqlarga yer osti suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan sholi va ayrim sabzavot ekinlarini ekish uchun qulay maydonlar kiradi. Bunday tuproqlar Amudaryo bo'ylarida va ayrim kollektorlar bo'ylab joylashgan. Bu tuproqlar qishloq xo'jaligida foydalanish uchun sug'orilib, organik va minyeral o'g'itlar bilan ta'minlab, u yerlarni ekin maydonlariga aylantirishga bo'ladi.

3) Sho'r allyuvial tipdagi tuproqlar tumanning markaziy-g'arbida va janubiy-sharqidagi hududlarda uchrab, bu yerlar yer osti suvlari sathining yer yuzasiga eng yaqin joylashganligi bilan farq qiladi va qadimdan ko'p yillar mobaynida ekin ekilib, so'nggi paytlarda sho'rlanib dehqonchilik uchun yaroqsiz bo'lib qolgan yerlar kiradi. Bu tipdagi tuproqlarning mexanik tarkibi og'ir, qumli-sozli va sozli tuproqlardan iborat. Jumladan, bunday tuproqlar kuchli sho'rlangan va minyeralizatsiyalanganligi bilan farq qiladi. Ular ko'pincha qishloq xo'jalik ekinlarini ekishda foydalanilmaydi. Ammo, ajdodlarimiz bunday og'ir-soz va sho'rlangan yerlarni o'zlashtirish bo'yicha tajribada sinab ko'rgan. Ya'ni, birinchidan, sho'r tuproqli hududlar qondirib sug'oriladi, ularni chirindiga boy organik o'g'itlar bilan ta'minlab, iloji boricha yerning tuzini suv bilan yuvib o'zlashtiriladi. Bu jarayon ko'p suvni talab etadigan bulganidan sholi ekinini yoki bo'lmasa juxori ekinlari bilan olmaslab ekiladi.

Ikkinchidan, sozli og'ir tuproqlarni ishga qushish uchun eng avvalo bu yerlarga ko'p miqdorda qum tuproqni aralashtirib, yerni yaxshilab surib, ko'p miqdordagi organik va minyeral o'g'itlar bilan ta'minlab, yaxshi ekin ekadigan madaniy tuproqqa aylantirish mumkin.

4) Toqir tuproqlar ham mexanik tarkibi jihatidan qum-sozli va soz-loyli og'ir tuproqdan iborat bo'lib, bunday tuproqlar tumanning suv bosib yoki ko'llar ostidan qurigan yerlarda, shuningdek vaqtincha yog'inlar yig'ilib, qurib qoladigan qozon chuqurlarda uchraydi. Bu tipdagi tuproqlar hozirgi vaqtda dehqonchilikda

foydalanilmaydi. Biroq, bu kategoriyadagi tuproqni ekin moydanlariga aylantirishning birdan-bir haraqati qum-sozli va soz-loyli tuproqlar bilan aralashtirish orqali amalga oshiriladi.

5) Qumli tuproqlar tuman hududiga xarakterli bo`lib, uning ikki turi mavjud. Birinchi barxanli tipdagi, ikkinchisi qum tepaliklaridan iborat. Qumli tipdagi tuproqlar, ayniqsa tumanning sharqiy va shimoliy qismlarida joylashgan. Barxan qumli tuproqlarning qatlami mayda, o`rta va yirik bo`lib uchtaga bo`linadi. Shundan kichik barxanlarning balndligi 1 m dan 3 m gacha va katta barxanlarning balndligi 3 metrdan 7 metrgacha keladi. Bu tipdagi qumli tuproqlar tumanning shimoliy va shimoliy-sharqiy qismlarida uraydi. Tumanning qumli barxanli va qum tepaliklaridan iborat hududlari qorako`l qoy chorvachiligining yaylovlari uchun foydalaniladi. Shuningdek, tumanning shimoliy, shimoliy-g`ariy va shimoliy-sharqiy qismlarida qumli va qum-toshli tuproqlar ham uchraydi. Bunday tuproqli massivlar chorva mollari uchun yaylov sifatida foydalanishda katta ahamiyat kasb etadi.

## **1.6. Bioresurslari**

To`rtkul tumanining o`simliklar dunyosi tuman chorvachiligini rivojlantirishda, chorva mollarini yaylovlarda boqimda va chorva uchun qish oylariga em-xashaklarni tayyorlashda katta rol o`ynaydi. Shu bilan birga dag`al o`simliklar dehqonchilikka zararli ko`p o`tlar bilan qo`shib senaj tayyerlashda katta ahamiyatga ega.

Tuman tyerritoriyasida ko`pincha to`qaylarda o`sadigan eg`ochlar, shu jumladan to`rong`il va qamishlar tuman aholisining va xo`jalik omborlarining, uy-joy qurilishida qurilish materiallar i sifatida keng foydalaniladi. Tuman tyerritoriyasida uchraydigan o`simliklarga qizilmiya (bo`yan), pichan, entoq, uruq, ajriq, oqboosh, eg`och o`simliklaridan to`rong`il, jiyda, tol va boshqalar uchraydi. Tuman tuprog`ining sho`r yerlarida qorabaroq, baliqko`z, tuyasihgir, sho`ra va boshqa o`simliklar uchraydi. Tumanning o`simlikka eng boy zonasi Amudare bo`ylaridagi to`qay zonalari, qo`llari hisoblanadi. Dag`al xashaklar ko`pincha beda,

makkajo`xori va oq jo`xori poyasidan qish oylariga chorva uchun to`yimli senaj tayerlashda keng foydalaniladi.

To`rtkul tumani tyerritoriyasi xayvonot dunesiga uncha boy emas. Bunga asosiy sabab yerlarning o`zlashtirilishi, aholining zich joylashishi (boshqa tumanlarga nisbatan) va boshqalar.

Hayvonlarning bir qismi xalq xo`jaligida foydali hisoblansa, bir qismi aksincha dehqonchilik va chorvachilik xo`jaliklari uchun zararlidir. Shular jumladan tuman tyerritoriyasida shog`ol, evvoyi cho`chqa (to`ng`iz), tulki, bo`rsiq, kalamush, quen, suvlarda esa qimmat baholi mo`yna byeradigan ondatra hayvonlari uchraydi. Bu xayvonlarning anchasi xalq xo`jaligida katta ahamiyatga ega.

Amudaryo del`tasida yashaydigan hayvonlarning ko`pchilik qismi tuman tyerritoriyasida uchraydi. Ko`pincha evvoyi cho`chqa, bo`rsiq, quenlar tuman qishloq xo`jaligiga katta zarar keltiradi. Bu hayvonlar bahor paytida endi unib kelaetgan nihollarga zarar keltirsa ko`pincha kuzda hosilga kirib turgan em-xashak, ko`pincha sholi, makkajo`xori, poliz va sabzavot ekilgan dalalardagi pishib hosilga kirib turgan poliz-qovun va tarvuz, xilma-xil sabzavotlarni eb, ekin dalalarini payxon qilib tashlaydi. Tuman xo`jaligiga eng katta zarar keltiradigan hayvon evvoyi cho`chqa hisoblanib, ko`pgina ekinlarga zarar keltiradi. Bundan tashqari bo`rsiq, shoqol, quenlar hosilga kirgan dalalardagi poliz va sabzavot ekinlariga katta zarar etkazadi. Bundan tashqari ayrim yillari shoqol, tulki, bo`rsiqlar kichik uy hayvonlariga ham zarar keltiradi.

Tuman tyerritoriyasida uchraydigan kalamush, yumronqoziq va boshqa kemiruvchi hayvonlar ham donli ekin maydonlariga zarar keltiradi. Bu zararkunanda kemiruvchi hayvonlardan qutulish uchun xo`jaliklar don, em, omuxta, urug`lik donlar, chigit va boshqa oziq-ovqat saqlanadigan omborlarga, ularni o`ldiradigan ximik moddalar qo`yish usuli bilan kurash olib boriladi.

Tuman tyerritoriyasida ko`l, zovur va sug`orish sistemalari bo`ylarida uchraydigan ondatra va boshqa kemiruvchilar uchraydi. Bundan tashqari tumanda sazan, xon baliq, laqqa baliq, suven, oq anur, tolstolovik baliqlari uchraydi.

Foydali qushlardan qirg`ovul, ko`k kaptar, o`rdak, g`oz va boshqa qushlar uchraydi. Bular tuman aholisini oz bo`lsa ham parranda go`shti bilan ta`minlaydi.

To`rtkul tumani tabiiy sharoitlari va tabiiy resurslari tuman xalq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda asosiy rol` uynaydi. Tuman rel`efining deyarli tekis bo`lishi, shuningdek, Amudaryo olib kelgan unumdor etqiziqlardan iborat bo`lishi, yangi yerlarni ochishda ko`p xarajat ishlatmasdan ularni o`zlashtirishda, shuningdek qishloq xo`jalik o`simliklariga ishlov byerishda va meva bog`lariga ishlov byerishni yuqori darajada mexanizatsiyalashni, shuningdek, transport komunikatsiyalarini, sug`orish va zovur sistemalarini qurishda qulay sharoit tug`diradi.

Tuman iqlim sharoiti madaniy o`simliklarning vegetatsiya davrida yig`iladigan effektiv tempyeratura miqdorining ( $+10^0\text{S}$  dan) yuqori va sovuqsiz kunlar miqdorining ko`p bo`lishi tumanda ekiladigan madaniy o`simliklardan yuqori hosil olishga sharoit tug`diradi. Umuman, tuman iqlimi ayrim yillarni hisobga olmaganda dehqonchilikni optimal muddatda ekib, ularni erta yig`ib-tyerib olishga imkon tug`diradi. Ayrim ob-havo noqulay kelgan yillarda kech bahorda va erta kuzda sovuq urish sharoitlari ham takrorlanib turishi mumkin. Buning natijasida tuman qishloq xo`jaligi katta zarar ko`radi. Deyarli har yili kech bahorda takrorlanib turadigan bahorgi yog`in-sochin miqdorining ko`p tushishi hisoblanadi. Mana shu sovuq urishi va bahorda, kuzda takrorlanib turadigan bahorgi eg`in-sochin miqdorining (ko`p tushishi hisoblanadi) ko`p bo`lishi xodisalari tumanda dehqonchilikdan olinadigan hosil sifatining past bo`lishiga va hosil miqdorining kam bo`lishiga sababchi bo`ladi. Umuman, tuman iqlimi keskin kontinental, qurg`oq subtropik iqlim bo`lib, qimmat baholi dehqonchilikni, shu jumladan paxta, sholi, g`alla, chorvachilik, pillachilik tarmog`ini, shuningdek, bog`dorchilik, uzumchilikni rivojlantirish uchun, poliz va sabzavot dehqonchiligidan yuqori hosil olish uchun qulay hisoblanadi.

Tuman iqlim sharoiti paxtaning o`rta pishar syerhosil navlarini, g`alla-bug`doy, makkajo`xori, oq jo`xori va sholi, don ekib ulardan yuqori hosil olish

uchun qulaydir. Tuman iqlim sharoitida ayrim madaniy o`simliklardan 2-3 marotaba, bedadan 4-5 marotaba hosil olish mumkin.

Tuman suv resurslariga boy bo`lib, ular yerlarni sug`orishda, aholini ichimlik va kammunal suv bilan ta`min etishda, sanoatni texnologik suv ta`min etishda, shuningdek baliqlarni urchitishda va ovlashda katta ahamiyatga ega.

Tuman tuproqlari unumdor allyuvial etqiziqlar ustida paydo bo`lgan strukturali va gumusga boy madaniy tuproqlardan iborat.

Tuman o`simlik dunesiga boy bo`lib, ular chorva mollarini Amudare del`tasida va Qizilqum massivida, qoramol va mayda mol chorvachiligini rivojlantirishda va ularga qish oylarida em-xashak va senaj tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Yuqori rivojlangan dehqonchilik madaniyati yerlarni zaxlanishdan saqlashni talab etadi. Shu maqsadda boshqa joylarda bo`lgani kabi bu yerda ham bir qancha kollektorlar barpo etilgan. Ushbu suv inshootlari tuman xududi flora va faunasi uchun katta ahamiyatga ega. Bu yerda daraxtlardan to`rong`il, oq tol, qora tol, jiyda, butasimon o`simliklardan chuchukmiya, qamish, yakan va boshqa o`simliklar o`sadi. Cho`l xududlarida yantoq va saksovol ko`plab maydonlarni egallagan. Amudarening qo`sh sohili bo`ylab cho`zilgan to`qayzorlar, janubdan Qoraqum bilan o`ralgan xudud tabiatning rang-barang va maftunkor bo`lishini ta`minlaydi.

Tuman rel`efi, flora va faunasining juda qadim zamonlardagi holatiga va uning kelgusidagi taraqqiyotiga nazar tashlash butun Amudaryo del`tasi Tuyamo`yindan Orol dengizigacha bo`lgan xudud tabiat olamining ajralmas qismi ekanligini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan Orol muammosi, yerning sho`rlanish darajasining oshishi kabi masalalar tuman ekologiyasida ham yaqqol sezilib turadi.

## **II BOB. TO`RTKUL TUMANINING AHOLISI VA MEHNAT RESURLARINING TUMAN IJTIMOIIY- IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O`RNI**

### **2.1. To`rtkul tumani aholisining o`shish su`rati va tarkibi**

Ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi, uning rivojlanib borishi uchun aholi va uning sonining muntazam o`shib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, u yoki bu mintaqa aholisi sonining ko`payib borishi va uning joylanishi ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi hamda hududiy tashkil etilishi bilan bir-biriga zamon va makonda mos kelishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratadi. Aks holda, ushbu jarayonlar o`rtasidagi nomutanosibliklar qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois ham aholi soni, uning joylanishidagi o`zgarishlarni tadqiq qilish va uni bashorat qilish muxim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda, shuningdek, kelajakda ham ushbu jarayonlarni o`rganishda aholi geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va boshqada qator tarmoqlarning asosiy tadqiqot ob`ekti sifatida tutgan o`rni kattadir.

To`rtkul tumani aholisi va mehnat resurslari tabiat majmuasining bir qismi bo`lib, uning o`shishi va demografik rivojlanishi, respublika ishlab chiqarish ko`chlarini rivojlantirishda va ularni hududlar bo`ylab maqsadga muvofiq joylashtirishda asosiy rol` uynaydi. Sababi, tuman xalq xo`jaligi tarmoqlarini maqsadga muvofiq joylashtirish dastavval, tuman aholisining miqdoriga, mehnat resurslarining aktivligiga, shuningdek yuqori malakali mutaxassislarga, bozor iqtisodiyotini yaxshi biladigan tadbirkor kadrlarning bo`lishiga chambarchas bog`liq.

Tuman mehnat resurslari, tuman tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda, tumanda etishtirilgan hamma iqtisodiy resurslarni qayta ishlashda, shuningdek, sanoat va transport kommunikatsiyalarini, qishloq xo`jalik va boshqa aholiga xizmat ko`rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda asosiy rol` o`ynaydi.

To`rtkul tumanida 2013 yil aholi ro`yxatiga ko`ra, 192,6 ming aholi yashab, shundan 75,2 ming, ya`ni umumiy aholining 39,0 foizi shahar aholisi, 117,4 ming aholi, ya`ni 61,0 foizi qishloq aholisi hisoblanadi.

Tuman aholisi 2013 yili, 1970 yilga nisbatan 2,0 baravar ko`paygan. Bu holatlarni tuman aholisining o`shish dinamikasini ko`rsatuvchi quyidagi 4-jadvaldagi ma`lumotlardan ko`rish mumkin.

**Jadval №4**

**To`rtkul tumani aholisining o`shish su`rati**

<b>Yillar</b>	<b>Doimiy aholi, ming kishi</b>	<b>1959 yilga % his.</b>	<b>Shundan, qishloq aholisi, ming kishi</b>	<b>1959 yilga % his.</b>
<b>1959</b>	<b>67,7</b>	<b>100,0</b>	<b>57,2</b>	<b>100,0</b>
<b>1970</b>	<b>95,6</b>	<b>141,2</b>	<b>76,8</b>	<b>134,3</b>
<b>1979</b>	<b>87,3</b>	<b>129,0</b>	<b>61,8</b>	<b>108,0</b>
<b>1985</b>	<b>99,0</b>	<b>146,2</b>	<b>69,0</b>	<b>120,6</b>
<b>1986</b>	<b>73,5</b>	<b>108,6</b>	<b>72,3</b>	<b>126,4</b>
<b>1987</b>	<b>77,6</b>	<b>114,6</b>	<b>74,0</b>	<b>129,4</b>
<b>1988</b>	<b>79,5</b>	<b>117,4</b>	<b>61,3</b>	<b>107,2</b>
<b>1989</b>	<b>81,6</b>	<b>120,5</b>	<b>103,6</b>	<b>111,2</b>
<b>2000</b>	<b>155,2</b>	<b>229,2</b>	<b>105,7</b>	<b>184,8</b>
<b>2003</b>	<b>161,1</b>	<b>238,0</b>	<b>109,9</b>	<b>192,0</b>
<b>2004</b>	<b>162,9</b>	<b>240,6</b>	<b>110,8</b>	<b>193,7</b>
<b>2005</b>	<b>164,0</b>	<b>242,2</b>	<b>112,8</b>	<b>197,2</b>
<b>2007</b>	<b>167,1</b>	<b>246,8</b>	<b>115,0</b>	<b>201,0</b>
<b>2008</b>	<b>169,7</b>	<b>250,7</b>	<b>116,9</b>	<b>204,4</b>
<b>2009</b>	<b>175,4</b>	<b>259,0</b>	<b>106,8</b>	<b>186,7</b>
<b>2010</b>	<b>178,3</b>	<b>263,3</b>	<b>108,6</b>	<b>189,8</b>
<b>2013</b>	<b>192,6</b>	<b>284,5</b>	<b>117,4</b>	<b>205,2</b>

Jadvaldagi ma`lumotlarga asosan To`rtkul tumani aholisi 1959 yilda o`tkazilgan aholi hisob-kitob ma`lumotlariga ko`ra 67,7 ming kishini tashkil etsa, 2014-yilning 1-yanvardagi statistik hisobotga muvofiq 192,6 ming kishiga ko`paygan. So`nggi 54 yil mobaynida tuman aholisining mutlaq ko`payishi 118,6 ming kishini tashkil etib, bu har yil sayin aholi soni o`rtacha 2125 kishiga ko`payib bordi degan so`z. Tuman aholisining o`shish su`rati, albatta eng avvalo o`ning demografik rivojlanish xususiyatlari bilan bog`liq.

Tuman aholisi sonining tez o`shishiga ba`zi omillar; birinchidan, aholisining asosiy qismi qishloq joylarida joylashganligi (qishloq joylarida, odatda, tabiiy ko`payish shaharlarga nisbatan biroz yuqori bo`ladi), ikkinchidan, mintaqaning geografik joylashgan o`rni (Orol dengizidan uzoqda) va milliy tarkibiga bog`liq tashqi migratsiyaning boshqa mintaqalarga nisbatan kam sodir bo`lishi ta`sir qilgan.

To'rtkul tumanida aholining demografik rivojlanishi davtavval tumanda yashovchi aholining azaldan kelayotgan syerfarzand oylani tashkil etish traditsiyalari hisoblanadi. Shuning uchun ham tuman hududida yashovchi aholi syerfarzand oylalardan iborat bo'lib, demografik rivojlanish hususiyatlari juda yuqori darajada. Tuman aholisining demografik rivojlanishi – aholining to'g'ilishi bilan o'limi ko'rsatkichi orasidagi tafovutni anglatib, ularning holatlari qo'yidagi №5 jadval ma'lumotlarida berilgan.

**Jadval №5**

**To'rtkul tumani aholisining demografik ko'rsatkichlari**

<b>Yillar</b>	<b>har 1000 kishiga tug'ilganlar soni</b>	<b>har 1000 kishiga o'lganlar soni</b>	<b>har 1000 kishiga tabiiy ko'payish</b>
<b>1970</b>	<b>42,2</b>	<b>7,5</b>	<b>34,7</b>
<b>1980</b>	<b>39,9</b>	<b>8,4</b>	<b>34,6</b>
<b>1982</b>	<b>55,1</b>	<b>11,1</b>	<b>44,0</b>
<b>1983</b>	<b>43,1</b>	<b>7,3</b>	<b>35,8</b>
<b>1984</b>	<b>60,3</b>	<b>10,6</b>	<b>49,7</b>
<b>1985</b>	<b>59,6</b>	<b>11,4</b>	<b>48,3</b>
<b>1986</b>	<b>59,1</b>	<b>11,1</b>	<b>48,0</b>
<b>2000</b>	<b>23,4</b>	<b>6,1</b>	<b>17,3</b>
<b>2003</b>	<b>20,3</b>	<b>5,4</b>	<b>14,9</b>
<b>2004</b>	<b>20,0</b>	<b>5,0</b>	<b>15,0</b>
<b>2005</b>	<b>20,3</b>	<b>5,4</b>	<b>14,9</b>
<b>2007</b>	<b>20,1</b>	<b>5,3</b>	<b>14,8</b>
<b>2008</b>	<b>20,8</b>	<b>5,2</b>	<b>14,8</b>
<b>2009</b>	<b>25,4</b>	<b>4,7</b>	<b>20,7</b>
<b>2010</b>	<b>22,6</b>	<b>4,6</b>	<b>18,0</b>
<b>2013</b>	<b>23,4</b>	<b>4,3</b>	<b>19,1</b>

5-jadvaldagi ma'lumotlarga asosan, tuman hududida demografik o'sish darajasi hali ham yuqori hisoblanadi. Xatto Orol muammosi sharoitida 1000 kishiga o'rtacha tabiiy o'sish 19 kishini tashkil etadi. Bu dunyoning eng boy davlatlaridan biri hisoblanadigan Germaniyaga nisbatan 21 hissa ko'p degan so'z. Masalan, 2005 yili tuman bo'yicha 1596 kishi to'g'ilib, tabiiy o'sish ko'rsatkichi 14,9 kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1970 yillarga nisbatan ancha past darajada, albatta bunday holat Orol muammosiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Agar shu 1970 yillarda tuman bo'yicha har bir 1000 kishiga tabiiy ko'payish 34,7 kishini tashkil etsa, bu ko'rsatkich hozirgi paytda 20-23 kishidan oshmaydi.

Shuningdek, keyingi yillarda yuz byerayotgan Orol muammosiga bog`liq, aholi o`rtasida har xil kasalliklarning ko`payishi kuzatilmoqda. Umuman Quyi Amudaryo rayoni ekologiyasining bo`zilishi kuzatilmoqda. Jumladan, tuman aholisining iste`mol qiladigan suvlarning Amudaryoning yuqori oqimidan oqib keladigan oqova-zaharli suvlarning qo`shilishi natijasida bo`zilishi, Orol dengizi ostidan bo`shagan tyerritorialardan millionlab tonna zaharli changlarning kelishi, shuningdek, poliz-sabzavot, meva-cheva va boshqa madaniy o`simliklarga kyeragidan ortiqcha azot o`g`itlarini byerishga va sholi maydonlarini zaharli pistitsidlar byerishiga bog`liq gepatit (saramas) epidemiyasining tez-tez bo`lib turishi, respublika tuman aholisining ko`pincha homlador ayollar salomatligining bo`zilishiga olib kelgan, tibbiyot mutaxassislarining tekshirishlariga qaraganda Quyi Amudaryo ayollarning 70-80 foizi kam qonlik (anemiya) kasalligi bilan kasallangan. Bunday kasalliklar ichida keyingi yillarda ko`pincha gepatit kasalligi, astma, ichki organlarda tosh paydo bo`lish kasalliklari ko`plab uchraydi. Ichki organ tosh kasalliklarning paydo bo`lishi sababi, aholi iste`mol qiladigan ichimlik suvlarning haddan tashqari turli tuzlarga, zaharli ximik elementlarga boy bo`lganligidandir. Sababi bu suvlar Amudare orqali uning yuqori oqimida joylashgan Xorazm viloyati tumanlarida iflos kollektor va zovurlardan, hatto, ayrim korxonalaridan iflos ximik elementlarga boy oqova suvlarini iste`mol qilishidandir. Bu ximik elementlar bilan to`yingan suvlarni iste`mol qilish natijasida tuman aholisining buyrak, o`t xalta pufagi, jigar, o`pka va turlicha ichki organ tosh kasalliklari ko`payib bormoqda. Mana shu sabablarga ko`ra tuman aholisining keyingi yillarda demografik rivojlanishi ancha susayib ketgan.

## **2.2. Tuman aholisining yosh, jinsiy va milliy tarkibi**

To`rtkul tumanida tug`ilish koefitsientining yuqori bo`lishida nikoh yoshidagi ayollarning ko`payishi hamda nikohning barqaror bo`lishi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, agar MDX davlatlarida har bir 1000 kishiga to`g`ri keladigan 16 yoshdan katta nikohda bo`lgan ayollar soni 500 bo`lsa, bu ko`rsatkich O`zbekistonda 550 ayolni tashkil qiladi. Shu bilan birga nikohdagilar orasida 20-

49 yoshgacha boʻlgan ayollarning foizi oʻsmoqda. Bu va boshqa omillar respublikada aholisining tabiiy oʻsishiga kuchli taʼsir qilmoqda. Aholining jins va yosh tarkibi, ularni har tomonlama oʻrganish demografiyaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalalarni oʻrganib chiqish va hal qilish aholi sonining oʻsishini taʼminlashda, yosh va jinsiy tarkibiga qarab aholini maishiy xizmat turlari bilan taʼminlash ayniqsa, xalq xoʻjaligi sohaslarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish imkonini byeradi. Shunday qilib, aholi jins tarkibi yuksalishi tufayli aholining yosh tuzilishida oʻsmirlarning soni koʻpayib boradi yoki tugʻilish koeffitsienti yuqorilaydi. Bu holat hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining mintaqaviy rivojlanishini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Shu asosda Toʻrtkul tumani aholisining yosh va jinsiy tarkibini tahlil qilish oʻziga xos xususiyatlarga ega.

Toʻrtkul tumani aholisining mehnatga yaroqli qismi 109,0 ming kishini tashkil qilib, bu tuman aholisining 56,5 foizini egallaydi. Shundan 54,7 ming kishini erkaklar, 54,3 ming kishini ayollar tashkil etadi. Ishga yaroqli yoshdan katta boʻlganlar soni tuman boʻyicha 9,5 ming kishini tashkil qilib, bu umumiy aholi sonining 5,0 % ga barobar (jadv. 6).

#### Jadval №6

#### Tuman aholisining yosh va jinsiy tarkibi

	1.01.2014 yil holatiga aholi soni
<b>1. Aholi soni jami</b>	<b>192600</b>
<b>shu jumladan</b>	
<b>-erkaklar</b>	<b>95500</b>
<b>-ayollar</b>	<b>97100</b>
<b>1.1. Aholining umumiy sonidan:</b>	
<b>A. 16 yoshgacha shaxslar-jami</b>	<b>75121</b>
<b>Shulardan: erkaklar</b>	<b>36985</b>
<b>Ayollar</b>	<b>38136</b>
<b>B. Ishga yaroqli yoshdagi shaxslar, 16 yoshdan 55, 60 yoshgacha – jami</b>	<b>109026</b>
<b>Shulardan: erkaklar</b>	<b>54701</b>
<b>Ayollar</b>	<b>54325</b>
<b>V. Ishga yaroqli yoshdan katta boʻlgan Shaxslar-jami</b>	<b>9560</b>
<b>Shulardan: erkaklar</b>	<b>4841</b>
<b>Ayollar</b>	<b>4809</b>

Tuman aholi sonining yuqori sur`at bilan o`shishi va ularning yosh xususiyatlaridagi katta farqlar mehnat resurslarining ko`payishiga imkon yaratmoqda. So`nggi yillarda tumanda mehnatga layoqatli odamlar tarkibida ijobiy o`zgarishlar kuzatilmoqda.

Tuman aholisining jinsiy tarkibida yosh o`smirlar va mehnat yoshidagi kishilarning nisbiy ulushi ortdi. Ya`ni aholining yosh tarkibidan yosh o`smirlar sonining nisbiy ulushi barcha tuman aholisining 40,0 %ini tashkil qiladi. Bu o`z navbatida tuman aholisi jinsiy tarkibining doimiyligi va ko`p bolali oila sonining ko`payishiga bog`liq.

Aholi sonining ko`payishi va uning tabiiy o`shishi, joylanishi haqida fikr yuritganda, mehnat resurslarining qanday joylashganligini bilish ahamiyatli o`rin egallaydi. Mehnat resurslariga mehnatga yaroqli yoshi 16 yoshdan 54 yoshgacha xotin-qizlar va 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar kiradi. Yoshi 54 yoshdan o`tgan ayollar va 60 yoshdan o`tgan erkaklar O`zbekiston qonunlariga binoan nafaqaga chiqariladi. Nafaqaga chiqqanlar ichida ishlash qobiliyatiga ega bo`lganlardan ularning tajribasidan to`liq foydalanishga bo`ladi. Bunday hollarda u kishilar mehnat resurslarining ajralmas qismiga kiritiladi va ular tumanda 144 ta tashkil etadi. Shu bilan birga har xil sabablarga ko`ra nogiron bo`lganlar mehnat yoshida bo`lsa, mehnat resurslariga kiritilmaydi va bunday kishilar tumanda 2908 kishiga teng.

To`rtkul tumani aholisi ko`plab millatlar vakillaridan tashkil topgan. Ular birlari bilan tug`ishqanlar kabi hamdustlikda yashamoqda. Davlatimiz mustaqilligi yillarida ular bir necha yutuqlarga erishdi va tumanning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida katta hissalar qushdilar. Tumanda yashaydigan millatlardan o`zbeklar 61,32 %ni, turkmanlar 24,73 %ni, qozoqlar 8,1 %ni, qoraqalpoqlar 5,6 %ni, ruslar 0,1 %ni va boshqa millat vakillari 0,05 %ni tashkil etadi. To`rtkul tumani aholisining milliy tarkibi bo`yicha ma`lumotlar qo`yidagi 7-jadvalda berilgan (jadv. 7).

**To`rtkul tumani aholisining milliy tarkibi**

Millatlar	2005 yilga, aholi soni	% his.	2013 yilga, aholi soni	% his.
<b>Qoraqalpoqlar</b>	<b>8760</b>	<b>5,5</b>	<b>10785</b>	<b>5,6</b>
<b>O`zbeklar</b>	<b>91782</b>	<b>60,2</b>	<b>118102</b>	<b>61,32</b>
<b>Turkmanlar</b>	<b>37343</b>	<b>23,8</b>	<b>47630</b>	<b>24,73</b>
<b>Qozoqlar</b>	<b>15493</b>	<b>9,0</b>	<b>15601</b>	<b>8,1</b>
<b>Tatarlar</b>	<b>483</b>	<b>0,3</b>	<b>188</b>	<b>0,1</b>
<b>Ruslar</b>	<b>1118</b>	<b>0,7</b>	<b>189</b>	<b>0,1</b>
<b>Boshqa millat vakillari</b>	<b>811</b>	<b>0,54</b>	<b>105</b>	<b>0,05</b>

Masalan, 2010 yilda, 2005 yilga nisbatan tumanda o`zbeklar 61,3 foizdan 60,2 foizga, turkmanlar 24,7 foizdan 23,8 foizga o`sgan bo`lsa, qoraqalpoq va qozoq millatidagi aholi soni umumiy aholiga nisbatan o`zgarishsiz qolgan, ammo, ruslar 0,7 foizdan 0,1 foizga va tatarlar 0,3 foizdan 0,1 foizga kamayib, boshqa millat vakillari ham 0,5 foizdan 0,05 foizga kamayib ketgan.

### **2.3. To`rtkul tumanining mehnat resurslari va uning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantirishdagi roli**

To`rtkul tumani Qoraqalpog`iston Respublikasining janubiy mintaqasida joylashgan yirik qishloq xo`jaligiga ixtisoslashgan tumanlaridan hisoblanadi. Shunga mos tuman mehnat resurslarining ko`pchiligi qishloq xo`jaligining umumiy yo`nalishdagi ishlari bilan band. 1989 yildagi statistik ma`lumotlar bo`yicha tuman aholisining soni 81,6 ming kishini tashkil qilib, shundan qishloq aholisi 63,6 ming kishini ya`ni umumiy aholining 78 %ni egallagan.

1959-2013 yillar mobaynida tuman qishloq aholisining birmuncha ko`payganligini ko`ramiz. Masalan, 1959 yili qishloq aholisi 57,2 ming kishi bo`lgan bo`lsa, 1989 yilda 63,6 ming kishiga ko`paygan. So`nggi 20 yil ichida (1990-2010 yy.) tuman aholisi 63,6 mingdan 108,6 ming kishiga ortdi.

Tuman hududida shahar aholisining nisbiy ulushi ham ortmoqda va barcha aholining 39,0 %ni tashkil qiladi. Masalan, 2000 yilda shaharda 49,5 ming kishi yashagan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2010 yilga kelib 69,7 ming kishiga ko`paygan.

2011 yil 1-yanvardagi statistik ma`lumotlar bo`yicha tuman aholisining mehnatga layohatli qismi 97,5 ming kishini tashkil qilib, bu tuman aholisining 54,5 %ni o`z ichiga oladi. Shundan 49,4 ming kishini erkaklar, 48,1 kishini ayollar tashkil etadi. Shulardan xalq xo`jaligida band bo`lganlar soni 73,7 ming kishini, yoki barcha mehnatga yaroqli aholining 75,2 % ish bilan ta`minlangan degan so`z (jadv. 8).

#### **Jadval №8**

#### **To`rtkul tumani mehnat resurslarining xalq xo`jaligi sohalari bo`yicha taqsimlanishi (kishi)**

<b>Ko`rsatkichlar</b>	<b>2009 yil</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2013 yil</b>
<b>Xalq xo`jaligida-jami</b>	<b>72400</b>	<b>73597</b>	<b>73795</b>
<b>Shundan:</b>			
- sanoatda	2560	2602	2622
- qishloq xo`jaligida	34160	34724	34595
- o`rmon xo`jaligida	50	50	54
- transport va aloqada	1586	1612	1612
- savdo, va umumiy ovqatlanishda	1670	1697	1797
- MTT tayyorlashda	1426	1449	1449

Jadvaldagi ma`lumotlarga asosan qishloq xo`jaligida ishlovchilar ko`pchilikni tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda aholiga xizmat ko`rsatadigan sohalarning soni ham yildan yilga ko`paymoqda, ammo ta`lim sohasida, shuningdek tibbiyot sohaslaridan boshqa sohalarda ishchilar soni oz. Tuman aholisi umumiy ulushida 1-6 yoshgacha (22680 kishi) bolalar soni ko`p bo`lsa ham, maktabgacha muassalar soni 26 ta tashkil etib, ularda bor-yo`g`i 2330 bola tarbiyalanmoqda. Ishga tortilmagan ayollarning ko`p qismi uy bekalari ayniqsa yosh bolali ayollar hisoblanadi.

Shunday qilib tuman hududida ishga yaroqli mehnat resurslari kategoriyasiga kiradigan aholi soni 97,5 ming kishini tashkil etib, shundan 34,7

ming kishi qishloq xo`jalig`i sohasida mehnat qiladi. Mehnatga layohatli yoshdagi fuqarolardan 13,4 ming uy bekalari hisoblanishadi.

Tuman masshtabidagi aholini ish bilan ta`minlashda aholiga xizmat ko`rsatadigan sohalarni tuzi shva rivojlantirish ayriqcha ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq ravishda xizmat ko`rsatadigan sohalarni tashkillashtirish sanoat korxonalarining shaxobchalarini qurish keng yo`lga qo`yilmoqda. Bu kabi ishlarning amalga oshirilishi qishloq joylarida ishsizlikni kamaytirishga va aholini ish bilan ta`minlashdagi etakchi usullardan hisoblanadi.

Xulosa qilib qilib aytganda, yaqin kelajakda tuman aholisini ish bilan ta`minlash masalasini yaxshilash uchun ijtimoiy sohalarning ishlab chiqarish bazalarini qurish va rivojlantirish kun tartibidagi asosiy vazifa hisoblanishi so`zsiz. Buning uchun avvalambor aholiga xizmat ko`rsatadigan sohalarni tuzishga alohida e`tibor qaratish kyerak. Aholini ish bilan ta`minlashni yaxshilash maqsadida agrosanoat kompleksiga tegishli kichik korxonalar qurish, engil sanoat, shuningdek qurilish sanoatining ayrim ishlab chiqarish filiallarini qishloq joylarida rivojlantirish masalasi ham katta ahamiyatga ega bo`ladi. Kelgusidagi pyerspektivalarga asosan tuman aholisi sonining tez o`shishini hisobga olsak, yoki 2015 yillarga kelib, aholi soni 210 ming kishiga ko`payishi kuzatiladi va o`ning 112 mingdan ortig`i mehnat resurslarini tashkil etadi. Demak, shunga muvofiq ravishda tuman aholisini ish bilan ta`minlash kelajakda asosiy masala bo`lib qoladi. Yuqoridagilarni e`tiborga olsak, har bir mahallada mehnat resurslarining tashkil qilinishi va ulardan samarali foydalanish hamda ularni ish bilan ta`minlash masalasi hozirning o`zidayoq qo`lga olinishi lozim deb o`ylaymiz.

### **III BOB. TO`RTKUL TUMANINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH YO`NALISHLARI**

#### **3.1. To`rtkul tumani ishlab chiqarish sohalariga umumiy ta`rif**

Qoraqalpog`istonning janubiy tumanlari ichida o`zining katta iqtisodiy salohiyatiga ega bo`lgan To`rtkul tumani har tomonlama jadal rivojlanib kelayotgan tumanlardan biri hisoblanadi. Tuman xo`jaligining negizini qishloq xo`jaligi sohasi egallab, unda paxtachilik asosiy o`rinni egallaydi. Paxtachilik keng sohalardan hisoblanib, tuman hududida esa boshqa sohalarning rivojlanishiga sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, sabzavot, poliz, g`alla, bog`chilik va em-xashak ekinlarini ekish bilan ham shug`ullanadi. Bu ko`rsatilgan sohalarning ko`pchiligi paxtachilik kompleksining tarkibiga kirib, ular almashlab ekish usulida paxtachilik bilan chorvachilik sohalarini rivojlantirishda katta rol o`ynaydi. Sababi, sanoat uchun kerakli byalgan xom-ashyo paxtachilik sohalaridan olinadi. Tuman hududida etishtiriladigan paxtaning ko`pchilik qismi yog` zavodlari va to`qimachilik fabrikalarida keng foydalaniladi. Paxtachilik sohalari Yangi agrotexnik bazalariga ega. Shuningdek, almaslab ekish usuliga mos em-xashak ekinlarini ko`p etishtiradi. Tumanning qishloq xo`jalik kompleksi chorvachilik uchun to`yimli em-xashak bilan ta`minlash imkoniyatlariga ega. Shu bilan bir qatorda chorvachilik sohalari tuman aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlashda ham katta ahamiyatga ega.

Tumanda paxtachilik sohalariga kiradigan sohalarni rivojlantirish, Ushbu hududda yashaydigan aholining tabiiy obodonligini oshirishda yana ham hukumat qarorlariga asosan aholini kundalik iste`mol mahsulotlari bilan ta`minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Paxtachilik tuman iqtisodiyotining etakchi sohasi bo`lib qolmasdan, tuman bo`yicha to`plangan yillik daromadning ko`pchilik qismi paxtachilik sohasiga to`g`ri keladi. To`rtkul tumani hududida paxtachilikning ayrim yillar ichida rivojlanishini qo`yidagi jadval ma`lumotlaridan ham ko`rishga bo`ladi (jadv. 9).

9-jadvalda berilgan ma`lumotlarga asosan To`rtkul tumanida paxtachilik sohalari bir tekis rivojlanayotir degan xulosa kelib chiqmaydi. Paxtachilikda qo`lga

kiritilgan ayrim yutuqlar hammasidan oldin ekin maydonlarini kengaytirish yo`li bilan ya`ni xo`jalik yuritishning ekstensiv usulida amalga oshirilmoqda.

## Jadval №9

### To`rtkul tumanida paxtachilik sohalarining rivojlanish ko`rsatkichlari

Yillar	Paxtanining umumiy yer maydoni		Paxtanining hosildorligi		Umumiy yalpi hosil	
	gektar	% his.	ts/ga	% his.	tonna	% his.
1981	15216	100,0	31,7	100,0	48680	100,0
1982	15730	103,5	34,6	109,0	54436	112,0
1983	16269	107,0	32,3	102,0	52534	108,1
1984	19532	128,4	21,9	69,0	42752	87,9
1985	19600	128,9	20,6	65,0	40363	83,1
1986	21249	139,6	20,2	64,0	42925	88,3
1987	22525	148,1	21,7	68,5	48960	100,7
1988	20894	137,0	23,2	73,2	48520	99,9
1989	20485	134,0	24,1	76,0	49300	101,5
1990	18598	122,0	23,6	74,5	43842	90,2
1995	15150	99,5	19,9	62,7	30248	62,2
2000	14225	93,5	19,1	60,3	27220	56,0
2003	12150	79,9	11,9	37,5	11295	23,2
2004	14225	93,5	19,1	60,3	27220	56,0
2005	14240	93,6	19,8	62,5	28181	58,0
2006	13333	87,6	18,6	56,8	24004	49,6
2007	13215	86,8	18,2	57,4	23607	48,3
2009	13017	85,5	20,4	64,3	26597	54,6
2010	12316	80,9	19,9	62,8	24530	50,4
2012	12400	81,5	21,9	61,0	27196	55,9
2013	12050	79,2	20,9	65,9	25214	51,8

Umumiy hosildorlik bo`lsa gektariga 1981 yilda 31,7 tsentnyer bo`lgan bo`lsa, 2013 yilga kelib 20,9 tsentnyerga kamayib ketgan. Umumiy yalpi etishtirilgan paxta mahsuloti 2013 yilda 25,2 ming tonna bo`lsa, bu 1981 yilga nisbatan dyerlik 1,6 hissa kam degan so`z.

Tuman hududida paxtachilik sohalarida regressiv tendentsiyalar keyingi yillardagi suv tanqisligiga bog`liq bo`lsa, ikkinchidan paxtachilik sohalarining sohalararo iqtisodiy aloqalarining uzilishiga ham bog`liq bo`lmoqda.

Hozirgi kunlarda tumanhududida paxtachilik mahsulotlarini ko`paytirish uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Paxtachilikda agrotexnik choralarni amalga oshirish imkoniyatlari izlanmoqda. Bu almashlab ekish usuli asosida ekin

maydonlarining tarkibini qayta qo`rib chiqmoqda. Almashlab ekish usuliga xos paxtachilik bilan shug`ullanayotgan xo`jaliklarda g`alla va em-xashak ekinlarining maydoni kengaytirilmoqda. Paxta bilan bir qatorda em-xashak ekinlarining, ayniqsa bedaning maydonini kengaytirish katta samara byeradi. Bu birinchidan, almashlab ekish usuliga ishonch hosil qilsa, ikkinchidan chorvachilik sohasini rivojlantirishga zamin yaratiladi. Hammaga ma`lum, Qoraqalpog`istonda, jumladan To`rtkul tumanida ham paxta monokulturasi yillarida paxtaning ekin maydoni umumiy dehqonchilikdagi ekin maydonlarining 85 %ga yaqinini egallar edi. Bu o`z navbatida tuproqdagi hosildorlikning pasayib ketishiga va oqir-oqibat umumiy mahsulotning miqdorining kamayib ketishiga olib keldi. Shuning bilan bir qatorda, paxtachilikda suv tanqisligiga bog`liq bahorgi ekish uzoqqa cho`zildi va vegetativ davr to`liq foydalanilmay hosildorlik birqancha kamaydi.

Oldingi vaqtlarda tuman hududida paxtachilik sohasini keskin intensivlashtirish maqsadida ilmiy-tajriba markazlari tuzilib, paxtaning Qoraqalpog`istonning tabiiy iqlim sharoitiga moslashgan yangi navlari yaratildi va ular ko`pchilik tumanlarning iqlim sharoitlariga moslashtirilib, rayonlashtirilgan paxtaning yangi ko`chatlari paydo etildi. Bu tuman hududida paxtachilikni bundan keyin ham rivojlantirishning bosh qatoriga kiradi.

G`allachilik qishloq xo`jaligining asosiy sohasidan hisoblanadi. Tumanda makkajo`g`ori chorvachilik uchun em-xashak tayyorlashda asosiy rolni bajaradi. To`rtkul tumanida g`allachilik sohasining rivojlanishini qo`yidagi 10-jadval ma`lumotlarida berilgan (jadv. 10).

10-jadvaldagi ma`lumotlarga asosan g`allachilik sohasida ekin maydoni bilan yalpi hosil yetishtirish ancha ko`paygan, ammo ayrim yillarda tuman hududida g`allachilikning ilachilikning hosildorligi ancha pasayib, yiliga barchasi bo`lib 454 tonuzilishga tushganligi ham ko`zga tashlanadi. Masalan, 1985 yildan boshlab g`ana g`alla etishtirilgan bo`lsa, 1990 yillarga kelib tuman bo`yicha faqat 3 ming tonnadan ortiq g`alla etishtirildi.

To`rtkul tumanida g`allachilikni rivojlantirish masalasi 1995 yillardan keyin bir oz yaxshilandi. Agar, tuman xo`jaliklari 1990 yili 3 ming tonna don

mahsulotlarini etkazib byergan bo`lsa, 2013 yili bu ko`rsatkich 22,3 ming tonnaga etdi. Biroq, bundan tuman bo`yicha g`allachilikda ijobiy natijalar qo`lga kiritildi degan tushuncha kelib chiqmaydi.

## Jadval №10

### To`rtkul tumanida g`allichlik sohalarning rivojlanishi

Yillar	Ekin maydoni		Yalpi hosil		Hosildorlik	
	gektar	% his.	Tonna	% his.	ts/ga	% his.
1981	1337	100,0	7122	100,0	53,2	100,0
1982	3037	227,2	11122	156,2	36,6	68,8
1983	2913	217,8	16333	229,3	56,0	105,3
1984	1216	90,9	2630	36,9	21,0	39,5
1985	515	38,5	454	6,3	8,8	16,5
1986	1570	117,4	1741	24,4	11,1	20,9
1987	1142	85,4	1693	23,8	14,8	27,8
1988	1187	88,8	2578	36,2	21,7	40,8
1989	1600	119,6	2751	36,6	17,2	32,3
1990	1980	148,1	3022	42,4	16,2	30,5
2003	4362	3,2 hissa	15001	2,1 hissa	34,5	64,8
2004	8282	6,2 hissa	26032	3,6 hissa	33,6	63,2
2006	5734	4,3 hissa	23052	3,2 hissa	40,2	75,6
2007	5758	4,3 hissa	25607	3,6 hissa	44,5	83,6
2009	6855	5,1 hissa	24733	3,4 hissa	36,1	67,8
2013	6139	4,6 hissa	22335	3,1 hissa	36,4	68,4

To`rtkul tumanida g`allachilikni rivojlantirish masalasi 1995 yillardan keyin bir oz yaxshilandi. Agar, tuman xo`jaliklari 1990 yili 3 ming tonna don mahsulotlarini etkazib byergan bo`lsa, 2013 yili bu ko`rsatkich 22,3 ming tonnaga etdi. Biroq, bundan tuman bo`yicha g`allachilikda ijobiy natijalar qo`lga kiritildi degan tushuncha kelib chiqmaydi. Sababi, tilakka qarshi tuman bo`yicha g`allachilik sohalarida har bir gektar yerdan olinadigan hosildorlik past bo`lib, shunga muvofiq umumiy g`alla mahsulotlarini tayyorlash dasturi yil sayin uziliga tushmoqda. Hosildorlik o`rtacha respublika ko`rsatkichlariga ham etmaydi. Shunga mos holda tumanda g`alla yetishtirishning hajmi va jon boshiga to`g`ri keladigan g`alla mahsulotlari juda past hisoblanadi. Hosildorlik bo`yicha o`tgan yillarga nisbatan aytirlikdek o`zgarishlar ko`zga tashlanmaydi. Aksincha, 2004 yili 26 ming tonna etishtirgan holatda ham hosildorlik bo`yicha 1980 yillardagi

ko`rsatkichga etkani yo`q. Umumiy olingan hosilning hajmi faqat ekin maydonlarining ko`payishi natijasida amalga oshirilmog`da. Shuning uchun ham oldingi ko`rsatkichlardan ko`ra g`alla hosildorligini oshirish bosh masalalar qatoriga kirmog`i shart. Bu birinchidan, tuman hududida aholini don mahsulotlari bilan ta`minlash masalasini hal etsa, ikkinchidan chorvachilik sohasini em-xashak bilan ta`minlashga ham katta hissa qo`shadi.

To`rtkul tumani mehnatkashlarini keyingi yillarda hukumatimiz oldinga qo`ygan talabalarini amalga oshirib, tuman aholisi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining hajmini ko`paytirish bo`yicha ko`pgina ishlarni amalga oshirmog`da. Bularga kartoshka mahsulotlarini ko`paytirish va har bir gektar ekin maydoni hisobidan hosildorlikni oshirish masalalari turadi. Shunga mos tuman hududida kartoshka ekinining yangi navlarini ko`paytirish va uni amaliyotda foydalanish masalalari ham katta ahamiyatga ega.

#### Jadval №11

#### To`rtkul tumanida kartoshka yetishtirishning asosiy ko`rsatkichlari

Yillar	Ekin maydoni		Yalpi hosil		Hosildorlik	
	gektar	% his.	tonna	% his.	ts/ga	% his.
1985	171	100,0	1254	100,0	73,3	100,0
1986	155	90,7	1262	100,7	81,4	111,0
1987	159	93,4	1268	100,9	79,7	108,4
1988	141	83,0	1248	102,5	88,5	120,7
1989	196	115,0	1285	102,5	65,6	89,5
1990	339	198,0	1094	87,3	32,3	44,1
2000	257	150,3	1430	114,0	55,6	75,9
2005	322	188,3	1963	156,5	61,0	83,2
2006	407	238,0	2803	2,2 hissa	68,9	93,9
2007	441	257,8	2838	2,3 hissa	64,4	87,9
2009	464	2,7 hissa	3211	2,5 hissa	69,2	94,4
2010	626	3,7 hissa	3766	3,0 hissa	60,1	82,0
2013	734	4,2 hissa	4384	3,4 hissa	51,3	69,9

Sabzavot va poliz ekinlari aholining kundalikli ist`emol mahsulotlaridan hisoblanib, bu soha tuman hududida uzoq tarixiy davrlardan buyon ekilib kelayapti. Tumanda sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va undan yuqori hosil olish uchun etarli imkoniyatlar mavjud. Sabzavot va poliz mahsulotlarining bir qismi tuman aholisi uchun oziq-ovqat mahsuloti sifatida foydalanilsa, uning katta

bir qismi qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini uchun xom-ashyo xizmatini bajaradi. Shuningdek, sabzavot va poliz mahsulotlariga degan talab juda yuqori hisoblanadi. To'rtkul tumani Qoraqalpog'iston Respublikasidagi yirik tumanlar qatoriga kiradi.

Tumanda 2009 yili sabzavot ekinlari 702 gektar maydonga ekilib, 16,9 ming tonna mahsulot etishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 912 gektarni va umumiy hosil 16,3 ming tonnani tashkil qilgan. Lekin, ko'rsatilgan yillar ichida mahsulot yetishtirish faqat ekin maydonlarini ko'paytirish hisobidan bo'ldi. Poliz ekinlari maydoni esa 2009 yil 1092 gektardan, 2010 yili 607 gektarga pasayib ketkan yoki 55,6 %ni tashkil etadi. Ammo, poliz ekinining hosildorligi yuqoridagi yillarga nisbatan 101,5 %ga ko'paygan. Tuman o'z aholisini poliz mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash va Qo'yi Amudaryo rayonining boshqa tumanlariga chiqarish imkoniyatiga ega.

To'rtkul tumanining paxtachilikdan keyingi ikkinchi katta sohalarining biri chorvachilik hisoblanadi. Chorvachilik tuman aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Tumanda chorvachilikning asosiy ikki sohasi qoramol va qorako'l qo'y chorvachiligi rivojlangan. Bundan, birinchi soha go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirishda asosiy vazifani bajarsa, qorako'l qo'ychilik sohasi jun, qorako'l tyerisi va go'sht mahsulotlarini tayyorlashga xizmat qiladi. Tuman hududida ko'p yillar davomida go'sht-sut mahsuloti uchun yirik shoxli qoramol chorvachiligi rivojlanib kelmoqda. Ammo, mollarning bosh soni kamayib ketdi va mol chorvachiligida asosiy ko'rsatkichlar aholidagi mollarning hisobidan ko'paymoqda. 2013 yilda To'rtkul tumanida yirik shoxli qoramollarning bosh soni 96,2 mingni tashkil etib, shundan dierlik barchasi aholiga tegishli va qishloq xo'jaligi korxonalarida bor-yo'g'i 63 bosh qoramollar mavjud.

Shunday qilib, To'rtkul tumani hududida qishloq xo'jaligi sohalarining rivojlanishi va uning ixtisoslashgan sohaviy tarkibiga tahlil yasash, dehqonchilik sohalarini, shuningdek mol chorvachiligini rivojlantirish uchun tabiiy sharoiti qulay ekani va katta imkoniyatlar yaratilishiga ko'zimiz yetti. Kelgusida to'rtkul

tumanining respublika miqiyosidagi yirik dehqonchilik va mol chorvachiligi yuqori rivojlangan o'lkaga aylanishiga imkoniyatlar yaratiladi.

Shu sababdan cho'l yaylovlarini o'zlashtirish, tuman yyer fondidan samarali foydalanishda va qorako'l chorvachiligi uchun cho'l yaylovlarning mo'l zahiralari ishga tushirishdagi birdan-bir maqsad ishonchli choralar qatoriga kiradi. Bu tadbir faqat qorako'l qo'ylarini boqish uchun xizmat qilib qo'ymasdan, sifatli qorako'l tyerisini ko'plab yyetishtirishdan iborat bo'ladi.

Yakunlab aytganda To'rtkul tumani Qoraqalpog'iston Respublikasidagi katta ishlab chiqarish zahiralari ega tumanlar qatoriga kiradi. Tuman xo'jaliklarida bекitilgan umumiy yer fondi 325,8 ming gektarni tashkil qilsa, shuning dehqonchilik uchun foydalaniladigan yer maydoni 24,4 ming gektarga barobar. Shu sababdan kelgusi vaqtlarda tuman hududida yer resurslarini xalq xo'jaligi sohalari oqilona foydalanish orqali dehqonchilik mahsulotlarining hajmini yuqorilatishga imkoniyatlar yaratiladi.

To'rtkul tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqalaridan hisoblanib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish sanoat sohalari va qishloq suv xo'jaligini temir-beton konstruksiyalari va yo'l qurilish materiallari bilan ta'minlaydigan sanoat tarmoqlari mavjud. Bular qatoriga To'rtkul paxta tozalash zavodi, asfal't zavodi, temir-beton konstruksiyalarini ishlab chiqaradigan beton zavodlaridan iborat,

Tumanning paxta tozalash zavodida ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish uchun eng kam deganda 40-45 ming tonna chigitli paxta tayyorlash kyerak. Ammo, hozirgi paytlarda tuman hududida yiliga hammasi bo'lib 13-14 ming tonna chigitli paxta tayyorlanmoqda. Shunga muvofiq, To'rtkul tumani bo'yicha har yil sayin 66-73 ming tonna hajmda, shuningdek Byeruniy va Ellikqa'la tumanlarining hisobidan yil sayin To'rtkul paxta tozalash zavodi uchun 12-15 ming tonna hajmda paxta yyetishtirish zarur.

To'rtkul paxta tozalash zavodi faqat tuman bo'yicha emas, butun Qoraqalpog'iston uchun katta ahamiyatga ega korxonahisoblanadi. Shuning uchun

ham korxonada ishlab chiqarish quvvatining 6-7 oy ishlashi mumkin bo'lgan imkoniyatlarining uzilishga tushirish degag so'z.

Hozir To'rtkul paxta tozalash zavodida paxta tolasini tayyorlash jarayoni ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Korxonada 2005 yilning yakuni bo'yicha Ispaniyada o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmada yetakchi o'rinni egallaydi va oltin medalga muvassar bo'ldi. Bu, korxonada bo'yicha texnologik tomondan biroz ishlar amalga oshirilganini ko'rsatadi.

To'rtkul paxta tozalash zavodi 90 yillarning oxirlariga kelib texnik qayta jihozlanib, yangi tsehx ishga tushgandan keyin hozirgi kunning talablariga xos ish yuritila boshladi.

Shunday qilib korxonaning samarali foydalanishi kelajakda tumanda paxta tolasini sifatli tayyorlashga imkoniyatlar yaratadi.

Tuman hududida mahalliy sanoat orqali mahsulotlar ishlab chiqarish masalalari o'z yechimini topmoqda. Yil sayin g'isht ishlab chiqarishning hajmi ham ortmoqda. Tuman bo'yicha hozirgi paytda 4 ta g'isht tayyorlaydigan korxonada faoliyat yuritib, ularning geografik joylashuvi quyidagicha; g'isht tayyorlaydigan yirik korxonalar tumanning Saribiy, Qirqqizobod, A.Durdiev va tuman markazidagi tsexlardan iborat. Bu korxonalar yil sayin 6,5 ming dona g'isht ishlab chiqarmoqda. Tuman hududida g'isht tayyorlash tseklarini ochish aholini ish bilan ta'minlash va ularning qurilish materiallari iga bo'lgan talabini qanaatlandirishda ham katta natijalar byermoqda. Shunday qilib, tuman hududida sanoat korxonalari yil sayin 14 mlrd. 83 mln. so'm miqdorida har xil xalq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda.

### **3.2. To'rtkul tumani noishlab chiqarish sohalarining shikllanishi va uning tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati**

Qoraqalpog'istondagi yirik dehqonchilikga ixtisoslashgan tumanlardan biri To'rtkul qadim zamonlardan byerli aholiga xizmat ko'rsatadigan sohalarining rivojlanish darajasi bo'yicha belgili mintaqalar qatoriga kiradi. Bu zaminda belgili

paxta ustasi Abadjon Durdiev, madaniyat sohasida belgili Otajon Xudoyshukurov, partiya va xo`jalik ishlarida samarali mehnati bilan xalqqa taniqli Qosim Nurimbetov kabi vatandoshlar to`g`ilib voyaga yetgan. Shuningdek, tuman xalqi bizning kunlarimizda ham oqilona ish yuritib, respublika miqiyosida belgili o`g`il-qizlari bilan faxrlanadi.

Shunday qilib, To`rtkul tumani mustaqillik yillarida aholiga xizmat ko`rsatish sohalarini rivojlantirish bo`yicha ancha yuqori ko`rsatkichlarga erishdi.

Qoraqalpog`istonning birinchi poytaxti To`rtkul shahri haqiqiy madaniy markazga aylandi. Tuman markazida zamonaviy ahamiyatga ega teatrlar, muzey va sport inshootlari, shifoxonalar, to`g`riqxonalar, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qad ko`targan. Qishloq joylarida esa har xil to`garaklar, sport saroylari, maktablar, maktabkacha muassasalar, shuningdek kutubxonalar qishloq aholisining eng sevimli maskanlariga aylanib, talablari darajasida xizmatko`rsatadi.

Tumanda aholining sog`ligini saqlash sohalarini rivojlantirish va uning saviyasini yaxshilash bo`yicha ham bir qator ahamiyatli Amaliy choralar ko`rilmoqda. Hozirgi kunda tumanda 600 o`rinlik 6 ta kasalxona, 3 ta to`g`riqxonalar, shuningdek yaqindagina qurilib foydalanishga topshirilgan bolalarni davolash komplekslari ishlab turibdi. Bulardan tashqari 4 ta poliklinika ish olib bormoqda.

Shu bilan bir qatorda tuman qishloq aholisiga 12 ta feldshyer-akushyerlik punktlari, 21 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalar tibbiy xizmat ko`rsatmoqda. Faqatgina so`nggi yillarning o`zida tuman markazidan hozirgi zamon tipidagi zamonaviy bolalarni davolash kompleksi qurilib ishga tushirildi. 2 ta stamotologiya, 2 ta o`rinda maxsus dispansyerlik, shuningdek ayollar uchun 22 ta maslahatxonalar ega bo`lgan tashkilotlar, 2 ta bolalar va onalar sog`ligini saqlash poliklinika hamda ambulatoriyalar ish yuritmoqda.

Tumanda aholining sog`ligini saqlash, ularga ko`rsatilayotgan tibbiy xizmatning turlarini kengaytirish va saviyasini yaxshilash maqsadida bir qator samarali ishlar olib borilgan. Tuman hududida yangidan tumanlararo infeksiyalik dispansyeri, tibbiyot sanatoriya qismlari, to`g`riqxonalar faoliyat ko`rsatmoqda.

Davlatimiz Prezidenti I. Karimov mustaqillikning davtlabki kunlaridan-oq respublika xalq ta`limini hozirgi zamon talablari darajasida tashkillashtirish, ta`lim byerishning saviyasini oshirish, o`sib kelayotgan kelajagimiz bo`lgan yosh avlodlarga chuqur va keng bilim byerish ularning adob-axloqli, barkamol sag`lom avlod bo`lib voyaga yetilishida ayriqcha e`tibor qaratib, bu sohaga katta g`amxo`rliklar ko`rsatib kelmoqda. Shu asosda bu sohada ham so`nggi yillari aytarlikdek natijalarga erishilmoqda.

Hozirgi kunda tuman hududida 63 ta maktab bo`lib, ularda xalqimizning 30 mingga yaqin o`g`il va qizlari ta`lim-tarbiya olmoqda. Shuningdek, 1 ta akademik litsey va 7 ta kasb-hunar kollejlari bo`lib, ularda 9,5 mingga yaqin talabalar tuman xo`jaligi uchun malakali mutaxassislar tayyorlanilmoqda.

Tumanda maktabkacha muassalar soni 26 ta bo`lib, unda bolalarning ta`lim-tarbiya ishlari ham bogan sari yaxshilanmoqda. Ularda tumanning 3050 dan ortiq fvrzandlari tarbiyalanmoqda.

### **3.3. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida transport-iqtisodiy aloqalarining roli**

Transport-bu savdo va sanoatning rivojlanishi hamda ularning qishloq xo`jaligi bilan aloqa qilishi uchun moddiy tomondan xizmat ko`rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Qoraqalpog`iston yo`l qatnovini rivojlantirishga katta e`tibor qaratildi. To`rtkul-Byeruniy-Nukus trassa yo`llari asosiy aloqa vositalarini bajardi. Shunday qilib, tumanda transport tizimi yildan-yilga rivojlana bordi. Avtomobil transporti xalq xo`jaligining yuklarini va passajir toshishda katta ahamiyat kass etadi. Bu transport sohasi Bilan tuman hududiga ko`mir, neft`, har xil yoqilg`i moylar, qishloq xo`jaligi texnikalari, yog`osh va qurilish materiallar i, g`alla va boshqa mahsulotlarni toshishda asosiy rolni bajarib kelmoqda.

Avtomobil` transporti orqali To`rtkul tumanidan respublikamiz poytaxti Nukus shahri va tumanlar bilan aloqa qilinadi.

Tumanda qishloqlar orasida avtomobillar qatnovi yo`lga qo`yilgan. Shunday tumanlararo yo`llarning uzunligi 189 km ni tashkil qiladi. Yil davomida tumanda

tashilgan yuklarning hajmi 1,4 mln. tonna bo`lsa, tashilgan yo`lovchilar soni 7 mln. 211 ming kishini tashkil etadi.

1980 yili Gaz-Ochag–To`rtkul avtomobil yo`li foydalanishga byerilib, Qoraqalpog`istonni esa O`zbekistonning barcha viloyatlari bilan yanada yaqin bog`lasa, Toshkent-Uchquduq-Miskin-To`rtkul-Nukus temir yo`l liniyasining ishga tushirilishi To`rtkul tumanining ishlab chiqarish ko`chlarini keng hajmda rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

To`rtkul tuman transport sohalarining oldida turgan asosiy vazifalaridan biri tuman hududidagi qishloqlar orasidagi yo`llarni asfaltlash, passajir va har xil yuklarni tashishni yana ham rivojlantirish bo`lib hisoblanadi.

## XULOSA

Hozirgi paytda iqtisodiyotni tez sur`atda rivojlantirishni ta`minlash, iqtisodiy mexanizmlarni tashkil qilish yo`li bilan zamon talablariga muvofiq xo`jalik tizimini tashkil etishda va iqtisodiy aloqalarni bozor iqtisodiyotining talablariga mos tuzishga yo`l ochadi. Jumladan, yo`qni bor qilish siyosatidan voz kechishimiz darkor. Buning uchun ilmiy inqilob yangiliklarini ishlab chiqarish jarayonida samarali foydalanishni takomillashtirish va xalq xo`jaliq sohalarini rekonstruktsiya qilish, ishlayotgan korxonalar quvvatining samaradorligidan intensiv foydalanishga o`tish bugungi kunning asosiy talabi bo`lib hisoblanadi. Bu xo`jalik vositasi hisoblangan yyerdan samarali va to`liq foydalanishning qishloq xo`jaligida iqtisodiy reformalarni chuqurlashtirish yo`li bilan foydalanishga tegishli tabiiy, moddiy va finans resurslarini inson omili bilan moslashtirash orqali ish yuritishni taqoza qilmoqda. Shunday talablar To`rtkul tumanida ham ishlab chiqarish ko`chlarining samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratishi so`zsiz. To`rtkul tumanining qishloq xo`jaligi sohalarida ishlab chiqarish jarayonini intentsifikatslash yo`li bilan qishloq xo`jaligi sohalarining samarasi oshirilmoqda. Bu oxirgi hisobda To`rtkul tumanining iqtisodiy potentsialini kuchaytirishga va uning respublikaning xo`jalik tizimida tutgan o`rnini keskin rivojlantirishga imkoniyatlar yaratishi o`z-o`zidan belgili.

Mana shu rejada men To`rtkul tumanining tabiiy-iqtisodiy sharoiti va xo`jalik mexanizmidan foydalanish yo`llarini yaxshilash orqali tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini oshirish masalalarini o`rgandim va bu borada oz bo`lsa ham o`z fikrimni hamda takliflarimni byerishga harakat qildim.

Masalan, To`rtkul tumanining tabiiy sharoiti va resurslari xo`jalik tomondan ta`rif Byera turib, uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan ishlab chikarish sohalarini rivojlantirish imkoniyatlarini izladim va qishloq joylar aholisining yashash sharoitini yuksaltirish muammolari bo`yicha fikr yuritdim. Yaqin kelajakda tuman aholisini ish bilan ta`minlash masalasini yaxshilash uchun ijtimoiy sohalarining ishlab chiqarish bazalarini qurish va rivojlantirish kun tartibidagi asosiy vazifa hisoblanishi so`zsiz. Buning uchun avvalambor aholiga xizmat ko`rsatadigan

sohalarni tuzishga alohida e`tibor qaratish kerak. Aholini ish bilan ta`minlashni yaxshilash maqsadida agrosanoat kompleksiga tegishli kichik korxonalar qurish, engil sanoat, shuningdek qurilish sanoatining ayrim ishlab chiqarish filiallarini qishloq joylarida rivojlantirish masalasi ham katta ahamiyatga ega bo`ladi. Kelgusidagi perspektivalarga asosan tuman aholisi sonining tez o`shishini hisobga olsak, yoki 2015 yillarga kelib, aholi soni 210 ming kishiga ko`payishi kuzatiladi va o`ning 112 mingdan ortig`i mehnat resurslarini tashkil etadi. Demak, shunga muvofiq ravishda tuman aholisini ish bilan ta`minlash kelajakda asosiy masala bo`lib qoladi. Yuqoridagilarni e`tiborga olsak, har bir mahallada mehnat resurslarining tashkil qilinishi va ulardan samarali foydalanish hamda ularni ish bilan ta`minlash masalasi hozirning o`zidayoq qo`lga olinishi lozim deb o`ylaymiz.

Tuman hududida xo`jalik sohalarining tarkibini o`rgana turib, kelgusida qishloq xo`jaligining samaradorligini orttirish masalalari qarab chiqildi va taklif tavsiyalar ishlab chiqildi. Xalq xo`jaligi sohalarining hududiy tarkibi o`rganildi va tuman sharoitida qishloq xo`jaligi sohalarini kelgusida rivojlantirish ko`pgina foydalanilmagan zahiralarning o`rni aniqlandi va undan samarali foydalanish masalalariga alohida e`tibor berildi. To`rtkul tumanining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda kelajakda tuman hududida infratuzilmalarni va aholiga xizmat ko`rsatadigan sohalarni rivojlantirishga ham ahamiyat qaratildi.

Shunday qilib, birinchidan bu ishimiz tuman ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish masalalarini yuksaltirish va uni echishga yo`l ochsa, ikkinchidan to`plangan ko`rgazmali ma`lumotlar asosida maktab geografiya kurslarini o`qitishda mahalliy materiallar dan foydalanishga imkoniyat yaratishi so`zsiz deb hisoblayman.

## **Hayot faoliyati havfsizligi va favqulodda vaziyatlarida fuqoralarni muhofaza qilish**

O'zbekiston Respublikasi Buzirlar Kengashining 19.07.2011 y. №208 sonli «Xalqning er silkinishlar oqibatida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarda (ta`biy va texnogen tu`rdagi) harakat etishda tayarlash kompleks dasturini tasdiqlash haqida»gi qarori, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 22.07.2011 y. №310 sonli buyrugini boschilikga olinib va o`rinlash maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorati buyrugi (25.12.2012 y. №601 D/1) asosida «Hayot qavfsizligi» fani barcha ta`lim yonalishi buyicha talabalarga oquv jarayonida urgatish uchun, magistrlik dissertatsiya ishi va bakalavr mutaxassislik bitiruv ishlarini o`rinlashda fanning huquqiy asoslari kiritildi. 4) binoan «Hayot faoliyati havfsizligi» fanini barcha ta`lim yo`nalishlari bo`yicha talabalarga o`quv jarayonida o`rgatish uchun, magistr dissertatsiyasini va bakalavr malakaviy bitiruv ishini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

«Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ximoya qilish ta`minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo`ladi. Har bir kishi o`z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o`z huquqi va erkinliklarini ximoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur» (I. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko`rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg'in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo`jaligi ob`ektlarining barqaror ishlashini ta`minlash hamda halokat o`choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o`z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi. Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatalar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yirik hajmdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallashi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

**Favqulodda vaziyat** – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

**Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish** – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, oid – harakatlari majmui.

**Favqulodda vaziyatlarning oldini olish** – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

**Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish** - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga

etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarini halqaga olib, xavfli omillar tasirini tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

#### ***O'zbekiston Respublikasi qonunlari:***

**Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida** (1999 yil 20 avgust) – 5 qism va 27 moddadan iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

**Fuqaro muhofazasi to'g'risida** (2000 yil 26 may) – 4 ta bo'lim va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

**Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida** (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OITS/OIV kasalligining oldini olish sohasidagi davlat ta'minoti, kasallikning oldini olish bo'yicha

faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

**Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida** (1999 yil 20 avgust) – 15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

**Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida** (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida** (2000 yil 31 avgust) – 5 bo'lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida** (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo'lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

**Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida** (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. O'zbekstan Respublikasi MK (1997 jil 27 dekabr) №558-sonli qarori «O'zbekstan Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishda davlat tizimi haqida»g'i qarori bilan bekor etilib bu qaror qaytadan 2011 yil 24 avgustda O'zbekstan Respublikasi MK №242-sonli «O'zbekstan

Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishning davlat tizimi ishlarin yanada yuksaldirish» haqidagi qarori bilan to`ltirilib qayta ishlandi.

O`zbekstan Respublikasi (2011 jil 19 iyul`) №208-sonli qarori «Xalqni er silkinishlar oqibatida yuzaga kelish mu`mkun bulgan favqulodda vaziyatlarda (ta`biy va texnogen) harakat etishga u`rgatishning kompleks da`stu`rin tasdiyqlash» haqida qarori asosida barcha joylarda favqulodda vaziyatlarda ha`rakat etishnin` kompleks da`sturlari ishlab shig`ildi, oquv mashqulatlari alib borilmaqda.

***O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:***

**Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko`chish va er ko`chki hodisalari bilan bog`liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora – tadbirlar to`g`risida** (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko`chish va er ko`chki hodisalari bilan bog`liq ishlarni o`z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

***O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:***

**O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to`g`risida** (1996 yil yy aprel, 143 – sonli). Qarorga «O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to`g`risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

**O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to`g`risida** (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli). Qaror bilan O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to`g`risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo`yicha funktsiyalari keltirilgan.

**O`zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to`g`risida** (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli). Qaror

mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

**Tabiiy, texnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida** (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegarali turlarga bo'linadi.

**O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida** (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

**Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida** (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

**Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida** (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o'quv jarayonida talabalarga «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha keng manoda tushunchalar berildi.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov.I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent «O`zbekiston», 2007
2. Abdunabiev A.G. Iz istorii razvitiya irrigatsii v Uzbekistane. Tashkent, 1971 god.
3. Akramov Z.M. Geografiya sel`skogo xozyaystva Samarkandskoy i Buxarskoy oblastey Uzbekistana, chast`-2 izd. AN UzSSR. 1961g.
4. Bartol`d V.V. K istorii orosheniya Turkistana SPB. 1914g.
5. Bekbulatov A. Iz istorii geograficheskix izuchennosti territorii Karakalpakii. Nukus, 1977.
6. Genusov A.S. i.dr. Pochvenno-klimaticheskie rayonirovanie Uzbekistana s sel`skoxozyaystvennix tselyax. Tashkent – 1960 g.
7. Gulyamov Ya.G. Istoriya orosheniya Xorezma so drevneyshix vremen do nashix dney. Tashkent, 1955 g.
8. Djanakaraev S. Uluchshenie ekspluatatsii orositel`nix sistem Respubliki Karakalpakstan. Nukus – 1993 g.
9. Jolibekov B. Evolyutsiya pochv Yujnogo priaral`ya v svyazi s antropogennim Vozdeystviem. Vestnik KOAN RUz. 1972. №2.
10. Zemel`nyy fond Karakalpakskoy ASSR (Glavnoe upravlenie zemleustroystva) Tashkent – 1989 g.
11. Irrigatsiya Uzbekistana. tom III. izdanie SOPSa AN RUz. izd-vo FAN. Tashkent 1979.
12. Kurbanbaev e. Zasolenie oroshaemyx zemel` i myery ego preduprejdeniya. Izd-vo «Karakalpakstan». Nukus – 1973.
13. Mamedov Dj. i.dr. – Vodnie i mineral`noe bogatstvo KKASSR. Izd-vo «Karakalpakstan». 1973.
14. Matmuratov J. Agroklimaticheskie usloviya severo-zapadnogo Uzbekistana. Nukus, 1989.
15. Medetullaev J. Problemi kompleksnogo osvoeniya zemel`. Izd-vo «Karakalpakstan» - Nukus – 1976.

16. Narodnoe xozyaystva Respubliki Uzbekistan v 1990 g. stat. ejegodnik. Tashkent – 1991.

17. Ravitie narodnogo xozyaystva Respubliki Karakalpakstan za 60 let. stat. sbornik. Nukus, 1984.

18. Pak A.D. «Irrigatsiya Karakalpakskoy ASSR»-v knige «Irrigatsiya Uzbekistana» - Tashkent, 1979. 296-346 str.

19. Sotsial`no-ekonomicheskie polojenie Respubliki Karakalpakstan za yanvar`-dekabr` 2000, 2005, 2006, 2007, 2008, 2009, 2010, 2011 godы. Stat. sbornik. Nukus.

20. Tajimov T.T. Razvitie i razmeshenie sel`skogo xozyaystva KKASSR. Tashkent – 1960; Trudi SAGU, novaya syeriya, vipusk 157.

21. Umarov E., Dauletova K. Qaraqalpaqstannin tabiyati ham xojaligi. Nukus, 1989.

22. Umarov E. Qaraqalpaqstannin ekonomikalik ham sotsialliq geografiyasi. Nukus, 1999.

23. Umarov E. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hududiy muammolari. Nukus, 2007.

24. To`rtkul tumani ijtimoiy-iqtisodiy pasporti. Tuman statistika boshqarm